Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2026-yil 6-noyabr / juma / № 45 (4791)

POSTDA

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

НА ПОСТУ AT THE POST

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi nashri

OCHIQ MULOQOT VA MANZILLI TASHABBUSLAR

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning tub mohiyatida «Inson qadri uchun» degan ulug‘vor maqsad mujassam. Zero, aholi bilan ochiq muloqotning yo‘lga qo‘yilayotgani fuqarolarning davlatga va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlamoqda. Bu borada ichki ishlar organlarida o‘tkazilayotgan sayyor qabullar odamlarni o‘ylantirayotgan masalalarga qonuniy, adolatli va tezkor yechim topishning samarali mexanizmiga aylandi.

2





MEHRIDARYO SALOMATLIK POSBONLARI

11–14

Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimidagi tibbiyot muassasalarida fidokorona mehnat qilayotgan salomatlik posbonlari faoliyati haqida «Postda Shifokor» ilovasida tanishishingiz mumkin.

POSTDA Shifokor

HAFTA XABARLARI

EKSTREMIZM UCHUN JAZO CHORALARI KUCHAYTIRILDI

O‘zbekistonda ekstremizmga qarshi kurashishga oid qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. 2026-yil 2-noyabrda imzolangan qonunga muvofiq, ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlarda ishtirok etganlik uchun 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi. Shuningdek, ekstremizm, separatizm yoki aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solish, fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirish yoxud aholi orasida vahima chiqarishga da’vat etuvchi materiallarni tayyorlash yoki tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek, ekstremistik va terrorchilik tashkilotlarining ramziy belgilarini tarqatish yoki namoyish etish maqsadida tayyorlash va saqlash uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi.

Qonun bilan amaldagi hujjatlardagi «diniy ekstremizm» atamasi «ekstremizm» so‘ziga almashtirildi.

10 MING KISHI KASB VA TILGA O‘QITILADI

O‘zbekistonda xorijda ishlash istagidagi fuqarolarni kasb va chet tillariga o‘qitish, ularni ish beruvchilar talabiga mos tayyorlash tizimi takomillashtiriladi. Kelasi yili 10 ming nafar fuqaroni kasb va nemis tiliga o‘qitib, Germaniyada ishga joylashtirish rejalashtirilgan. Buning uchun har bir hududda migratsiya markazlari ochilib, viloyatlarga 8 milliard so‘mdan mablag‘ ajratiladi. Shuningdek, xorijiy ish beruvchilar talabiga mos kadrlar tayyorlash uchun 20 ta texnikum tanlanadi. Ma’lum bo‘lishicha, Germaniyadan joriy yilda 45 ming mutaxassisga talab tushgan, biroq til bilimi yetishmasligi sababli ulardan faqat 2 ming nafari ishga joylashtirilgan.

115 MING AHOLIGA MO‘LJALLANGAN YANGI SHAHARLAR

Vetnamning «ROX Group» kompaniyasi O‘zbekistonda umumiy qiymati 4,5 milliard dollar bo‘lgan to‘rtta shaharsozlik loyihasini amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Umumiy maydoni 285 gektar bo‘lgan majmualar Buxoro, Toshkent va Samarqandda barpo etilib, 115 ming nafar aholiga mo‘ljallanadi. Buxoro viloyatidagi loyihalar doirasida 65 gektarlik tuman va 25 gektarlik shahar hududida qurilish ishlari boshlangan. Bu yerlarda turarjoylar, mehmonxonalar, biznes markazlari, savdo va xizmat ko‘rsatish maskanlari qurilishi ko‘zda tutilgan. Loyihalarning taqdimoti 3-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrifi chog‘ida o‘tkazildi. Davlat rahbari mutasaddilarga investor bilan birgalikda loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari va zarur infratuzilmani ishlab chiqish bo‘yicha topshiriq berdi.

Musulmon ZIYO tayyorladi.

Sayyor qabul

OCHIQ MULOQOT VA MANZILLI TASHABBUSLAR



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Shu kabi xayrli va manzilli tashabbuslarning navbatdagisi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov boshchiligida yuqori saviyada o‘tkazildi. Unda vazir o‘rinbosarlari, sohaviy tuzilmalar rahbarlari hamda mas’ul xodimlar ishtirok etdi.

Sayyor qabul davomida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari atroflicha ko‘rib chiqilib, har bir masalaga xolis huquqiy baho berish va aniq chora-tadbirlarni belgilash asosiy vazifa qilib qo‘yildi.

ga bevosita tizim rahbariga murojaat qilish imkoni yaratildi.

Sayyor qabulda ro‘yxatga olingan 481 ta murojaatdan 236 tasi joyida ijobiy hal qilindi. Shuningdek, qo‘shimcha o‘rganish va surishtiruv talab etiladigan 245 ta murojaat ijrosi qat’iy nazoratga olinib, aniq muddatlar belgilangan holda tegishli sohaviy xizmatlarga yo‘naltirildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahri va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari rahbarlari tomonidan o‘tkazilgan muloqotlarda jami 199 ta murojaat ko‘rib chiqildi. 74 ta murojaat-



Toshkent shahri va Toshkent viloyati fuqarolari yuzma-yuz muloqot davomida o‘zlarini qiynab kelayotgan masalalarni bayon etdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mamlakatimizning boshqa olis hududlarida yashovchilar esa videokonferensaloqa orqali jarayonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shildi. Bu orqali masofadan qat’i nazar, har bir fuqaroda ko‘tarilgan muammolar shu yerning o‘zida yechimini topdi. 125 tasi bo‘yicha esa o‘rganishlar olib borish va tegishli huquqiy yechim berish yuzasidan mas’ullarga topshiriqlar berildi.

Inson manfaatlarini ustun qo‘yishga qaratilgan bu kabi amaliy va ochiq uchrashuvlar kelgusida ham yurtimizning barcha hududlarida tizimli ravishda davom ettiriladi.



Hududlarda

Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov Buxoro viloyatida xizmat safarida bo‘lib, hududda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish va viloyat ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan yaqindan tanishdi.

YANGI BOSQICH, YANGI VAZIFALAR



Vazir dastlab Buxoro shahar IIOFMBda «Xavfsiz va sog‘lom yurt» oyligi doirasida tashkil etilgan tezkor shtab faoliyatini o‘rgandi hamda mas’ul shaxslarning hisobotlarini tingladi. Bu jarayonda shahar hududida jinoyatchilikni jilovlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va mahallalar kesimida profilaktik ishlar natijadorligini oshirish zarurligiga alohida e’tibor qaratdi. Ushbu yo‘nalishda kunlik xizmat faoliyatini chuqur tahlil qilib borish va rahbar xodimlarning mas’uliyatini yanada kuchaytirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Tashrif doirasida viloyat IIB Patrul-post xizmati batalyoni hamda Kogon



tumani Ichki ishlar bo‘limidagi sharoitlar ham ko‘zdan kechirildi. Jumladan, PPX batalyonida xodimlarning jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirish uchun yaratilgan sharoitlar o‘rganildi. Saf maydonini kengaytirish va hududni zamonaviy talablar asosida rekonstruksiya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Kogon tumani IIBda esa moddiy-texnik ta’minot va xizmat sharoitlari tahlil qilindi. Xizmat jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, raqamlashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish va profilaktik ishlarni kuchaytirish vazifalari belgilandi.

Ichki ishlar vaziri huzurida viloyatda jamoat xavfsizligini ta’minlashni yangi bosqichga olib chiqish hamda davlatimiz rahbarining 2026-yil 3-noyabr kuni viloyatga amalga oshirgan tashrifi davomida belgilab berilgan vazifalar ijrosiga bag‘ishlangan tezkor yig‘ilish o‘tkazildi.

Yig‘ilishda viloyatda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan yirik investitsiya loyihalari, xususan, asosiy ko‘chalarni rekonstruksiya qilish, yangi avtomobil va temiryo‘l tarmoqlarini barpo etish hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarida jamoat xavfsizligini ishonchli ta’minlash, avtomobil yo‘llarini raqamli monitoring tizimi bilan to‘liq qamrab olish va turizm markazlarida xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi bir qator muhim masalalar muhokama qilindi. Shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda maxsus tadbirlar davomida harakat uzluksizligini ushlab turish maqsadida maxsus «yashil yo‘laklar» tashkil etish borasida so‘z bordi.

Yig‘ilishda ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan tegishli vazifalar belgilab olindi.

Sahifa materiallarini Feruz YO‘LDOSHOV tayyorladi.
Sodiq HAKIMOV olgan suratlar.

KO‘P QIRRALI HAMKORLIK

Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov Qatar Davlatining mamlakatimizdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Hasan Hamza Asad Muhammad Hoshim bilan rasmiy uchrashuv o‘tkazdi.



Unda tomonlar ikki davlat o‘rtasida shakllangan mustahkam do‘stlik aloqalari va ko‘p tomonlama hamkorlik rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan e’tirof etdilar.

Muloqotda asosiy e’tibor ikki mamlakat ichki ishlar organlari o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi holatini tahlil qilish va uni yanada kengaytirish istiqbollariga qaratildi. Xususan, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni qo‘llash, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va noqonuniy narkotrafikka chek qo‘yishda o‘zaro tezkor ma’lumot almashish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va raqamli xavfsizlikni ta’minlashda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish kabi o‘ta muhim va dolzarb sohalarda tajriba almashish hamda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari chuqur muhokama qilindi.

Shuningdek, muloqot chog‘ida global va mintaqaviy darajadagi zamonaviy tahdid hamda xavf-xatarlarning ortib borayotgani qayd etilib, ularga qarshi samarali kurashishda xalqaro va ikki tomonlama hamkorlikning o‘rni beqiyos ekani ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida sohadagi o‘zaro aloqalarni nazariy kelishuvlardan konkret amaliy mazmun bilan boyitish, ikki davlat mutaxassislari o‘rtasida muntazam tajriba va malaka almashinuvini yo‘lga qo‘yish hamda belgilangan sohalarda birgalikdagi ishlarni yanada faollashtirishga kelishib olindi.





Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov hamda Turkiya Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Ufuk Ulutash o‘rtasida samimiy va samarali muloqot bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi do‘stlik hamda qardoshlik rishtalariga asoslangan ko‘p qirrali hamkorlik so‘nggi yillarda yangi mazmun bilan boyib borayotgani alohida e’tirof etildi. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalar bilan bir qatorda, huquqni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi aloqalar ham izchil rivojlanayotgani ta’kidlandi.

Muloqotda asosiy e’tibor ikki mamlakat ichki ishlar organlari o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga qaratildi. Xususan, global va transmilliy xavf-xatarlarga qarshi kurashishda o‘zaro tajriba almashish va tezkor ma’lumot almashinuvini faollashtirish masalalari muhokama qilindi. Suhbat chog‘ida kelgusida ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar va hamkorlikning yangi bosqichlari belgilab olindi.

O‘z muxbirimiz.
Hikmatilla ALIMJONOV olgan suratlar.

Ko‘rik-tanlov

NAZOKAT ORTIDAGI SHIJOAT

Jamoat xavfsizligi universitetida «Vatan mehri yuragimda» shiori ostida «To‘maris izdoshlari» ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi.





Unda kuch tuzilmalari va harbiy idoralarning 7 jamoasi 7 ta shart bo‘yicha o‘zaro bellashdi. Qatnashchilar «Tanishtiruv», «Zakovat» intellektual bilimlar bellashuvi, o‘q otish, harbiy va jismoniy tayyorgarlik, «Epchil, tejamkor va orasta beka», «Iste’dod va mahorat» shartlari bo‘yicha bilim va mahoratlarini namoyish etdilar. Shuningdek, «Epchil, tejamkor va orasta beka» sharti ishtirokchilarning milliy taom tayyorlash mahoratini, «Iste’dod va mahorat» sharti esa ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazdi. Har bir shart nafaqat g‘oliblik uchun kurash, balki o‘zaro tajriba almashish, do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash maydoniga aylandi.

Ko‘rik-tanlovning yakuniy bosqichi IIV Madaniyat saroyida bo‘lib o‘tdi. Tanlov yakuniga ko‘ra, «Shijoat ustalari» nominatsiyasida Ichki ishlar vazirligi terma jamoasi, «Aniq zarba» nominatsiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati jamoasi g‘olib deb topildi. «Aql charxi» nominatsiyasida Davlat xavfsizlik xizmati hamda Bojxona qo‘mitasi, «Cheksiz g‘ayrat» nominatsiyasida Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi, «Vatan yuragimda» nominatsiyasida esa Favqulodda vaziyatlar vazirligi jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

G‘olib jamoalar Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Hikmatilla ALIMJONOV olgan suratlar.

Toshkent shahri.





POSTDA
НА ПОСТУ * AT THE POST

Yangi O‘zbekiston – yangi ichki ishlar organlari

BARCHA QULAYLIKLARGA EGA

Poytaxtimizning Chilonzor tumanida 4-sonli IIBning yangi ma’muriy binosi foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan o‘tkazilgan tantanali tadbirda Toshkent shahar IIBB boshlig‘i, tuman hokimi, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar rahbarlari, faxriylar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.







Ta’kidlash lozimki, zamonaviy talablar asosida qisqa muddatda bunyod etilgan uch qavatli yangi ma’muriy binoda barcha qulayliklarga ega 22 ta xizmat xonasi tashkil etilgan bo‘lib, ular zamonaviy texnologiyalar va zaruriy jihozlar bilan ta’minlangan.

Ushbu IIB tumandagi 14 ta mahalla aholisiga xizmat ko‘rsatadi. Ilgari bo‘lim bir qavatli eski binoda faoliyat yuritib kelgan edi. Binoning foydalanishga topshirilishi xodimlarning xizmat sharoitlarini tubdan yaxshilash bilan birga, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda hudud osoyishtaligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tantanali marosimda o‘z xizmat burchini sidqidildan bajarib kelayotgan uch nafar profilaktika inspektori yangi uy-joy bilan ta’minlangani ham e’lon qilindi. Bu ichki ishlar organlari xodimlarini har tomonlama ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning sharoitini yaxshilashga qaratilgan e’tiborning yorqin namunasi bo‘ldi.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

ZAMONAVIY XIZMAT SHAROITLARI YARATILDI



Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlar uchun munosib xizmat sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mirzacho‘l va Yangiobod tumanlarida foydalanishga topshirilgan zamonaviy ma’muriy binolar bu boradagi bunyodkorlik ishlarining yaqqol samarasidir.

Mirzacho‘l tumani IIB JXX Yo‘l harakati xavfsizligi guruhining umumiy qiymati 1 milliard 710 million so‘m bo‘lgan yangi ma’muriy binosida xodimlarning samarali faoliyat yuritishi, fuqarolarga sifatli va tezkor xizmat ko‘rsatishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Bu esa 56 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qilayotgan tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish hamda bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Yangiobod tumanida esa zamonaviy talablar asosida qurilgan tuman IIBning yangi ma’muriy binosi tantanali ravishda foydalanishga topshirildi. Ma’muriy bino nafaqat zamonaviy me’moriy yechimlari, balki xodimlar faoliyati va fuqarolar qabuli uchun yaratilgan qulay sharoitlari bilan ham ahamiyatlidir.

Tadbir doirasida qurilish tashkiloti rahbariga IIVning «Ichki ishlar organlariga ko‘magi uchun» ko‘krak nishoni, bir guruh tuman IIB xodimlariga esa «Ichki ishlar vazirligining 35 yilligi» esdalik nishoni topshirildi.

Muqaddas SAPAROVA,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.





HUSHYORLIK – XOTIRJAMLIK GAROVI

«Xavfsiz va sog‘lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirining uchinchi bosqichi doirasida Andijon tumanidagi aholi gavjum maskanlarda profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, avtoshohbekatlar va markaziy dehqon bozori hududlarida tashkil etilgan targ‘ibot ishlarida o‘g‘rilik, shuningdek, tig‘li buyumlardan foydalangan holda sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratildi. Namoyish etilgan ta’sirchan videoroliklar yordamida fuqarolarga shaxsiy buyumlari va mol-mulkini asrash, jamoat joylarida hushyorlikni yo‘qotmaslik, zaruratsiz tig‘li buyumlarni olib yurishning odamlar orasida hushyorlik biroz susaygandek. Holbuki, «O‘zingga ehtiyot bo‘l, qo‘shningni o‘g‘ri tutma», degan naql bejiz aytilmagan. Bunday tadbirlar bizga ogohlikni yo‘qotmaslik, joylarda xavfsizlikni ta’minlashni avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz kerakligini uqtiradi.

Shuningdek, tadbir davomida bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan kiberjinoyatchilikning oldini olish masalasiga ham e’tibor qaratildi. Fuqarolarga «APK Qo‘riqchi» mobil ilovasining imkoniyatlari haqida ma’lumot berilib, ularni mazkur tizimga ulash bo‘yicha targ‘ibot-tushuntirish ishlari olib borildi.



ayanchli oqibatlari hayotiy misollar asosida tushuntirildi.

– Bugun hammaning o‘ziga yarasha tashvishi bor, – deydi tumandagi «Qumko‘cha» mahallasida istiqomat qiluvchi mehnat faxriysi Ne’matjon Obidjonov. – Nazarimda, ayanchli oqibatlari hayotiy misollar asosida tushuntirildi.

Ayni paytda bu kabi profilaktik va targ‘ibot tadbirlari viloyatning boshqa hududlarida ham davom ettirilmoqda.

Sherzodbek NURIDDINOV, mayor.

Andijon viloyati.

KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR




Chiroqchi tumanida ham oylik doirasida qator amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Jumladan, sodir etilgan jinoyatlar va ularning kelib chiqish sabablari, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish, mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirish, oilalar farovonligini ta’minlash hamda aholi muammolarini manzilli o‘rganish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



TARG‘IBOT ISHLARI KUCHAYTIRILDI

Jizzax viloyatida «Xavfsiz va sog‘lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirlari oldidan jurnalistlar va blogerlar uchun matbuot anjumani o‘tkazildi. Unda jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, shuningdek, aholining huquqiy savodxonligi hamda kiber madaniyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan batafsil ma’lumot berildi.

Anjuman yakunida «Xavfsiz va sog‘lom yurt» tadbirlarini keng jamoatchilikka yetkazish, ularni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda faol yoritish maqsadida jurnalistlar hamda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o‘rtasida 10 ta nominatsiya bo‘yicha tanlov e’lon qilindi.

Shuningdek, oylik doirasida Jizzax davlat pedagogika universiteti Filologiya oliy pedagogika maktabida targ‘ibot uchrashuvi o‘tkazildi. Unda viloyat IIB JXX Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi, Jizzax shahar IIB JQB vakillari, universitet profilaktika inspektori hamda O‘zbekiston Shifokorlar assotsiatsiyasi Jizzax viloyati bo‘limi vakillari ishtirok etdi. Talaba-yoshlarga huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, yo‘l harakati qoidalariga rioya etish, jamoat tartibini saqlash, giyohvandlik vositalarining inson salomatligi va kelajagiga salbiy ta’siri, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilish yuzasidan muhim tushuncha va tavsiyalar berildi.

O‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

PROFILAKTIK SUHBATLAR

Viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan «Xavfsiz va sog‘lom yurt» tezkor-profilaktik oyligi doirasidagi tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, Buxoro shahrining tarixiy qismida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar va sayyohlar bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazildi. Unda jamoat tartibini saqlash, xavfsiz muhitni ta’minlash hamda belgilangan qoidalarga rioya etish yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi. Shuningdek, qonunchilik talablariga qat’iy amal qilish bo‘yicha tegishli ogohlantirishlar qilindi.

Mahliyo RASHIDOVA, kapitan.

Buxoro viloyati.



POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Yuksak mukofot sohiblari

HAMISHA ZIYRAK



– Assalomu alaykum. Iltimos, hujjatlaringizni taqdim etsangiz.

– Tinchlikmi, komandir? Qoidani buzmadim-ku!?

– Kechirasiz, bu shunchaki nazorat tekshiruvi.

– Qoidalarni buzmasam ham, to‘xtataverarkansiz-da! Bo‘ldimi, bizga ruxsatmi? – deya Navoiy-Buxoro yo‘nalishida harakatlanayotgan «Spark» avtomobili haydovchisi hujjatlarini qaytarib olishga shoshdi.

Bu esa Navoiy viloyati IIB JXX YHXB 2-safarbarlik guruhi inspektori, safdor Qahramon Ergashevda shubha uyg‘otdi. U kinologni yordamga chaqirdi. Kinologga biriktirilgan xizmat iti avtomashinada giyohvandlik vositasini topdi.

Lavhamiz qahramoni faoliyatida bunday holatlar tez-tez uchrab turadi. U hech qachon hushyorlikni unutmaydi. Safdor Q. Ergashevning fikricha, YPX inspektori uchun haydovchi bilan muloqotda so‘z tanlash, vaziyatni to‘g‘ri baholash va xotirjamlikni saqlash juda muhim sanaladi.

– Har bir haydovchining o‘z tashvishi va rejasi bor. Uni to‘xtatganimizda, avvalo sababini tushuntirishimiz, murojaat qilayotganimizda hurmatini saqlashimiz kerak, – deydi inspektor.

Kimdir yo‘l harakati qoidalarini bilmagani uchun xato qiladi, yana kimdir shoshqaloqligi tufayli qoidani buzadi. Q. Ergashev har bir holatga qonuniy baho berib, zarur paytda tushuntirish ishlarini olib boradi. Uning uchun har bir xizmat kuni mas’uliyatli hisoblanadi.

Safdor Qahramon Ergashevning ko‘p yillik fidoyilarcha xizmatiga munosib baho berildi. U ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi. Bu mukofot inspektorni kelgusida o‘z vazifasini yanada mas’uliyat bilan bajarishga undashi shubhasiz.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

FIDOYILIK VA MAS’ULIYAT

Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan qabul qilingan Prezidentimiz farmoniga muvofiq taqdirlangan bir guruh xodimlar orasida Buxoro tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori, podpolkovnik Luiza Muhsinova ham bor. «Sog‘lom turmush» medali bilan taqdirlangan lavhamiz qahramoni bilan suhbatlashdik.

– Mukofot muborak bo‘lsin! Xizmatlaringiz e’tirof etilishi sizga cheksiz quvonch bag‘ishlagan bo‘lsa kerak?

– Albatta. Bu mukofot men bilan bir safda yelkama-yelka turib xizmat qilayotgan hamkasblarimning ham mehnatiga berilgan baho deb bilaman. O‘z navbatida, ushbu yuksak e’tirof menga shijoat bag‘ishlab, yanada fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi.

– Ichki ishlar organlarida xizmat qilish ayollar uchun oson emas. Uning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Aytingchi, bu sohaga kirib kelishingizga nima sabab bo‘lgan?

– Yaqin qarindoshlarimiz orasida ichki ishlar organlarida xizmat qilganlar bo‘lmagan. Lekin mazkur sohani tanlashimga katta turtki bergan inson otamning yaqin do‘stlaridan biri, viloyat ichki ishlar organlarida ko‘p yillar rahbarlik lavozimlarida fidokorona xizmat qilib, polkovnik unvoni bilan pensiyaga chiqqan Shonazar To‘rayev bo‘ldilar. U kishi tez-tez xonadonimizda mehmon bo‘lar, xizmat faoliyatlari, kasbning sharafi va mas’uliyati haqida qiziqarli voqealarni so‘zlab berardilar. Men esa bolaligimdan ularning harbiycha qiyofasi, intizomi va xalq xizmatiga



bo‘lgan sadoqatiga havas bilan qarardim.

Yillar uchqur shamolga o‘xshaydi. Umring o‘tayotganini goh sezib, goh sezmay ham qolar ekansan. O‘tgan davr mobaynida u rahbariyat qayerni lozim ko‘rsa, o‘sha lavozimda sidqidildan ishladi. Ayniqsa, faoliyati davomida ko‘plab voyaga yetmaganlar hamda xotin-qizlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, ularni jinoyat va huquqbuzarlikka qo‘l urishdan asrab qoldi. Jinoyat sodir etgan yoki huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ygan yoshlar va xotin-qizlarni profilaktik hisobga olib, hollaridan doimiy ravishda xabar olib turdi. Qolaversa, yana noto‘g‘ri yo‘lga kirib qolmasliklari uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

– Asosiy vazifamiz – xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini muhofaza qilishdan iborat. Zimmamizdagi mas’uliyat zalvorli. Shu bois tumanda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ayniqsa, xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik borasida tizimli ishlar olib bormoqdamiz.

Lavhamiz qahramoni kasbini sevgani uchun ham qiyinchiliklardan cho‘chimaydi, boshqa ayollarga o‘rnak bo‘lishga intiladi. Qolaversa, turmush o‘rtog‘i, podpolkovnik Quvvat Yarashovning ham ichki ishlar organlari xodimi ekani uning baxtiga baxt qo‘shadi. U ayni paytda viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni komandirining birinchi o‘rinbosari vazifasida xizmat qilmoqda. Bu ahil oilada Dilshod, Laziza va Ulug‘bekjonlar tarbiyalanmoqda. Ular ham kelajakda ota-onasi yo‘lini davom ettirishga ahd qilishgan.

Xullas, podpolkovnik L. Muhsinova oilada ham, jamoada ham o‘z o‘rniga ega. Kasbiga sadoqati, fidoyiligi va mas’uliyati bilan hamisha hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lib kelmoqda. Qutlug‘ sana munosabati bilan yuksak mukofotga loyiq ko‘rilgani esa uning xizmatiga berilgan munosib bahodir.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KITOBXONLIK MADANIYATI

Bugungi globallashuv davrida, axborot oqimi haddan tashqari ko‘paygan va turli gibrid xavf-xatarlar ortib borayotgan zamonda inson tafakkurini shakllantirish, ongi va dunyoqarashini yuksaltirishda kitobning ahamiyati aslo pasaygani yo‘q. Aksincha, ma’naviy barqarorlikni saqlash uchun kitob mutolaasi hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu jarayon jamiyat osoyishtaligini ta’minlashdek mas’uliyatli va sharafli vazifani bajarayotgan ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Faxriddin HAYIT,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir.

Videodarslik

Kasbiy mahoratning ishonchli tayanchi

«Bir millatni yo‘q qilish uchun uning kitobini yoqish shart emas, mutolaani bas qilsang kifoya», degan edi taniqli mutafakkirlardan biri. Bu fikrning mantiqiy davomi sifatida aytish joizki, kitob o‘qishdan to‘xtagan jamiyat o‘z taraqqiyotini ham to‘xtatadi. Zero, mutolaa insonning dunyoqarashini boyitib, fikrlash doirasini kengaytiradi, uni ma’nan yuksaltiradi. Intellektual quvvat va fikriy yetuklikdan mahrum bo‘lgan ong esa tashqi ta’sirlarga tez beriluvchan va murakkab qarorlar qabul qilishda ojiz bo‘lib qoladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati bevosita inson taqdiri, jamoat tartibi va qonun ustuvorligi bilan bog‘liq bo‘lib, u har kuni turli vaziyatlar, muammolar va murakkab jinoyatlar bilan yuzma-yuz keladi. Aynan shunday paytda uning eng asosiy tayanchi – bilim, mantiqiy fikrlash va kitob mutolaasidir. Mas’uliyatli vazifalarni bajaruvchi xodimning murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri, qonuniy va adolatli qarorga kelishi uning faqat xizmat tajribasigagina emas, balki chuqur bilim va yuksak mantiqiy fikrlashiga ham bevosita bog‘liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish joizki, kitob mutolaasi ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining turli jabhalarida yuqori samara beradi. Xususan:

– **muloqot madaniyati va stressga bardoshlilikda:** har kuni turli fe’l-atvorli va kayfiyatdagi fuqarolar, nizoli vaziyatlar hamda jinoyatchilik bilan yuzma-yuz keladigan xodim uchun psixologik barqarorlik juda muhim. Mumtoz va zamonaviy badiiy adabiyotlarni o‘qish xodimning empatiya (boshqalar his-tuyg‘usini tushunish) hissini oshirib, zo‘riqishlarni yengishga va fuqarolar bilan muloqotda vazmin bo‘lishga yordam beradi;



– **mantiqiy fikrlashda:** detektiv va psixologik asarlar, tergovchi va tezkor xodimlarda mantiqiy fikrlash, voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishini ko‘ra olish va sinchkovlik kabi kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi;

– **profilaktik ishlar samaradorligini oshirishda:** ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari bevosita jamiyatning ichida, mahallalarda faoliyat yuritadi. Yuqori dunyoqarash va so‘z boyligiga ega bo‘lgan inspektor aholi o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini ta’sirchan va ishonchli tarzda olib bora oladi.



Tizimda kitobxonlikni ommalashtirish

Ichki ishlar organlarida xodimlarning madaniy-ma’rifiy saviyasini oshirish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, IIV tasarrufida jami 223 ta kutubxona hamda 196 ta «Innovatsion kutubxona burchagi» faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, vazirlik Akademiyasi Axborot-resurs markazi fondi qariyb 300–400 ming nusxa atrofidagi adabiyotlarni qamrab olgan bo‘lib, ular huquqiy, badiiy, psixologik hamda elektron adabiyotlar bilan muntazam boyitib borilmoqda.

Xodimlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish va ularning ma‘naviyatini oshirish maqsadida «Eng yaxshi kitobxon xodim» ko‘rik-tanlovi o‘tkazilib, g‘oliblar rag‘batlantirilmoqda. Shuningdek, haftaning belgilangan kunlarida taniqli yozuvchi va shoirlar, olimlar bilan ijodiy uchrashuvlar, yangi kitoblar taqdimoti tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, xodimlarning intellektual salohiyati va huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida IIV Akademiyasining raqamli platformalari, sohaviy ilmiy jurnallar hamda Yoshlar ishlari agentligining «Mutolaa» kabi elektron kutubxona loyihalari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular xodimlarning kasbiy adabiyotlardan keng foydalanishi hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishiga xizmat qilmoqda.

Ma’naviy xazina

Xodimning dunyoqarashi va kasbiy mahoratini shakllantirishda quyidagi adabiyotlar to‘plami muhim ahamiyat kasb etadi:

Huquqiy va siyosiy adabiyotlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy qonunchilik to‘plamlari va inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar.

Badiiy va milliy mumtoz asarlar: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Abdulla Qahhor asarlari – insoniylik va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash uchun.

Jahon adabiyoti namunalari va psixologik asarlar: Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Erix Mariya Remark asarlari, shuningdek, inson psixologiyasi va muloqot san’atiga oid manbalar (Deyl Karnegi, Viktor Frankl va boshqalar).

Tarixiy va vatanparvarlik asarlari: Amir Temurning «Temur tuzuklari», Jaloliddin Manguberdi haqidagi tarixiy manbalar – mardlik va davlatchilik madaniyatini o‘rganish uchun.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Ichki ishlar vazirligi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan bo‘lib, u tizim xodimlari, harbiy xizmatchilari va ularning oila a’zolari o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish hamda yuksak vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida

Xalqimizda «Kitob – beminnat ustoz», «Kitobsiz inson – qanotsiz qush» degan hikmatli naqllar bejiz aytilmagan. Vatan tinchligi va el osoyishtaligi yo‘lida xizmat qilayotgan yurt posbonining qalbida vatanparvarlik tuyg‘usi bilan birga yuksak ma’naviyat, mutolaaga mehr mujassam bo‘lsa, bunday tizim har qanday murakkab vazifani muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo‘ladi.

Kitobxon xodim – o‘z muomalasi, adolatli qarorlari va chuqur bilimi bilan fuqarolarning ichki ishlar organlariga bo‘lgan ishonchi yanada ortishiga xizmat qiladi. Osoyishtalik posbonining qalbidan kitob mustahkam o‘rin egallar ekan, jamiyatimizda adolat va osoyishtalik yanada mustahkamlanadi, yurt taqdiriga daxldorlik hissi ortadi.

Feruz YO‘LDOSHOV,
o‘z muxbirimiz.

Qoraqalpoq tilidagi matn.

Rus tilidagi matn.

POSTDA
НА ПОСТУ * AT THE POST

Kasbidan kamol topganlar

SOBIT SADOQAT

Mas’uliyat va fidoyilikni talab etadigan ichki ishlar organlarida uzoq yillar xizmat qilib, orttirgan tajribasini yosh avlodga yetkazish har kimga ham nasib etavermaydi. Namangan viloyati ichki ishlar organlarida qirq yilga yaqin samarali faoliyat ko‘rsatib, ibratli hayot yo‘lini bosib o‘tgan Mohirjon Ahmedov ana shunday baxt sohiblaridan.



HAMMASI ORZUDAN BOSHLANGAN EDI...

Vaqtning shiddatiga hayratlanmay iloj yo‘q. Kechagina yuksak maqsadlarni ko‘zlab, mustaqil hayotga qadam qo‘ygan yosh yigit bugun ko‘p yillik tajribaga ega ustoz, turmushning past-balandini ko‘rgan faxriy xodimga aylandi. Ammo yillar o‘tsa-da, inson qalbidagi ezgu orzular, kasbiga bo‘lgan mehr va elga xizmat qilish istagi so‘nmasa, umr mazmun bilan to‘lib boraveradi.

Mohirjon Ahmedovning bolalik yillari Yangiqo‘rg‘on tumani Zarkent qishlog‘ining xushmanzara tabiati, samimiy insonlari orasida kechdi. O‘sha damlarni eslasa, bugun ham qalbiga iliqlik yuguradi. Bolalikning eng esda qolarli voqealaridan biri uning kelajakdagi kasbini tanlashi bilan bog‘liq.

Maktabda tahsil olayotgan kezlarida o‘qituvchisi «Kim bo‘lsam ekan?» mavzusida insho yozishni topshirdi. Sinfdoshlari turli kasblarni tanlashini bayon qildi. Mohirjon ham o‘z maqsadini aniq ifodalab: «Kelajakda ichki ishlar organi xodimi bo‘laman», – deb yozdi.

Bolalikda daftarga bitilgan bu orzu shunchaki qog‘ozda qolib ketmadi. Ustozlarining ta’limi, pand-nasihatlari, ota-ona tarbiyasi, o‘zining tirishqoqligi va intilishi uni ko‘zlagan manzili sari yetakladi. 1986-yilda uchastka noziri sifatida faoliyatini boshlaganida esa endi bu lavozim zimmasiga zalvorli mas’uliyat yukladi. Zero, kasb tanlash – yo‘lning boshlanishi.

MAS’ULIYAT SINOVI

U Namangan viloyati IIB Jinoyat qidiruv bo‘limiga uzoq yillar namunali rahbarlik qildi. O‘z kasbiga bo‘lgan mas’uliyati, tirishqoqligi va orttirgan tajribasi tufayli hamkasblari orasida hurmat qozondi, «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.

Lavhamiz qahramoni bugun ham xizmatdan uzilgan emas. U 2019-yildan buyon Davlatobod tumani IIB boshlig‘ining maslahatchisi sifatida faoliyat yuritib, yosh xodimlarga boy tajribasini o‘rgatib kelmoqda. Shuningdek, viloyat IIB Faxriylar kengashi a’zosi sifatida ham tizim hayotida faol ishtirok etmoqda. Uning hayot yo‘li bir haqiqatni tasdiqlaydi: kasbga sadoqat yillar o‘tishi bilan susaymasligi, aksincha, tajriba va hayotiy xulosalar bilan yanada mustahkamlanishi kerak.

SHOGIRDLARGA QOLADIGAN MEROS

– Vaqti-vaqti bilan har bir inson ortiga nazar tashlab, bosib o‘tgan umr yo‘lini sarhisob qilishi kerak. Kamchiliklarini to‘g‘rilab, kelajak uchun ezgu rejalar tuzishi lozim. Yutuqlar sari intilishimiz, izlanishimiz kerak, – deydi iste’fodagi mayor Mohirjon Ahmedov.

Uning fikrlarida ko‘p yillik hayotiy tajriba, kasbiy faoliyat davomida orttirilgan xulosalar mujassam. Darhaqiqat, o‘z ustida ishlamay qo‘ygan inson rivojlanishdan ham to‘xtaydi. Ayniqsa, zamon tez o‘zgarayotgan, yangi texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib kelayotgan bugungi kunda bilim va tajribani muntazam boyitib borish muhimdir.

MUSTAHKAM QO‘RG‘ON

Insonning kamoloti faqat xizmatdagi yutuqlari bilan belgilanmaydi. Uning oilasidagi mehr-oqibati, farzandlariga bergan tarbiyasi, hayotga bo‘lgan munosabati ham shaxsning muhim qirralarini namoyon etadi.

Mohirjon Ahmedov uchun oila – mehr va xotirjamlik maskani. Uning fikricha, xonadonda ahillik va o‘zaro hurmat hukm sursa, insonning ko‘ngli xotirjam, mehnati unumli bo‘ladi. Bugun u farzandlari va nabiralarining yutuqlaridan kuch oladi.

Fidoyi faxriyning hayoti mobaynida chiqargan xulosasi shuki, inson o‘z kasbini sevsa, zimmasidagi mas’uliyatni teran his etsa va orttirgan tajribasini boshqalar bilan baham ko‘rsa, uning mehnati yillar o‘tsa-da, o‘z qadrini yo‘qotmaydi. Aksincha, shogirdlar kamoli, hamkasblar hurmati va oilasi farovonligida davom etadi.

Jahongir TO‘XTASINOV,
o‘z muxbirimiz.
Namangan viloyati.

O‘quv mashg‘uloti

KO‘NIKMALARNI MUSTAHKAMLASH MAQSADIDA

IIV Tashkiliy departamenti Situatsion-tahliliy markazi tomonidan IIV Akademiyasi magistratura tinglovchilari uchun amaliy o‘quv mashg‘uloti tashkil etildi. Unda rahbar kadrlarning kuch va vositalarni samarali boshqarish salohiyatini oshirish, yirik ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonlari bilan yaqindan tanishtirish hamda «Xavfsiz shahar» tizimining yagona apparat-dasturiy platformasidan to‘g‘ri va ishonchli foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi.





Mashg‘ulotlar davomida Markazning situatsion-tahliliy imkoniyatlari namoyish etilib, «Xavfsiz shahar» tizimining yagona platformasida maxsus simulyatsiya mashg‘uloti o‘tkazildi. Tinglovchilar mavjud ma’lumotlar bazalari imkoniyatlaridan foydalanish hamda «112» qisqa raqami orqali kelib tushgan xabarlar bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini yanada boyitishdi.

Shuningdek, o‘quv jarayoniga jalb etilgan IIV huzuridagi Qo‘riqlash departamenti mas’ul xodimlari tomonidan tezkor harakatlanuvchi guruhlar faoliyatini raqamli xarita va axborot bazasi orqali real vaqt rejimida kuzatish hamda boshqarish tartibi tushuntirildi. Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari esa yagona platformaga birlashtirilgan yo‘l harakati xavfsizligiga oid axborot tizimlaridan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatishdi.

Tadbir yakunida markaz mutaxassislari ishtirokida boshqaruv va hamkorlikni samarali tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish hamda biriktirilgan kuch va vositalarni boshqarish mavzularida interfaol mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

Baxtiyor
ABDUSHUKUROV,
IIV Tashkiliy departamenti
Situatsion-tahliliy markazi
bo‘lim boshlig‘i,
podpolkovnik.

Yuksak mukofot sohiblari

OLIS MASKANDAGI XOLIS XIZMAT

Yurt koriga yarash, el osoyishtaligini himoya qilish har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Shunday mas'uliyatli vazifani sharaf bilan bajarib kelayotgan fidoyi xodimlar safida mayor Artur Daujanov ham bor. U Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan davlatimizning yuksak mukofoti – «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.



Mayor A. Daujanov ayni paytda Qo'ng'irot tumani IIB 3-sonli bo'linmasi boshlig'i lavozimida xizmat qilmoqda. Mazkur bo'linmaga «Qoraqalpog'iston» shaharcha fuqarolar yig'ini hududida tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash vazifasi yuklatilgan. Chegara hududida joylashgan bu olis manzilda huquq-tartibotni saqlash xodimdan yuksak mahorat, qat'iyat va hushyorlikni talab etadi.

– Chegaraoldi hududlarida xizmat qilish o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi, – deydi mayor Artur Daujanov. – Bo'linmamiz xodimlarining fidoyiligi tufayli hududimizda jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmayapti. Tegishli idoralar va jamoatchilik bilan hamkorlik natijasida deyarli uch yildirki, «yashil» toifani saqlab kelyapmiz. Prezidentimiz farmoniga muvofiq yuksak mukofot bilan taqdirlanganim meni juda xursand qildi. Bu butun jamoamiz xizmatiga berilgan yuksak baho. Kelgusida ham yurtimiz osoyishtaligini asrash yo'lida bor kuch-g'ayratimizni safarbar etamiz.

Mo'ynoq tumanida tug'ilib o'sgan A.Daujanov Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining jismoniy tarbiya fakultetini tamomlab, dastlab o'rta maxsus bilim yurtida yoshlarga saboq berdi. 2011-yilda ichki ishlar organlari xizmatiga kirib, yong'in xavfsizligi, profilaktika va jinoyat qidiruv sohalarida faoliyat yuritdi. 2025-yildan buyon esa hozirgi lavozimida ishlab kelmoqda.

Qahramonimiz turmush o'rtog'i Bag'dagul Azbergenova bilan Gulsanem, Rasul, Biybisanem ismli uch nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazayotgan baxtli xonadon sohibi ham.

Yurtning qaysi hududida istiqomat qilmaylik, jamiyat barqarorligi har bir fuqaroning daxldorlik hissi va o'zaro hamjihatligiga tayanadi. Zotan, Vatanga sadoqat balandparvoz so'zlarda emas, balki uning eng chekka go'shalarida ham tinchlikni mustahkamlash, inson qadrini ulug'lash va el osoyishtaligi yo'lidagi sidqidildan qilingan xizmatda namoyon bo'ladi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.



Narpay tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Sherbek Turdiyevning «Shuhrat» medali bilan taqdirlanishi uning 27 yillik samarali xizmat faoliyatiga berilgan yuksak baho, fidoyilik va kasbiga sadoqatning munosib e'tirofi bo'ldi.



«SHUHRAT»LI SHERBEKNING SHIJOATI

– Davlat mukofotini qabul qilib olar ekanman, ko'nglimdan cheksiz faxr va mas'uliyat hissi o'tdi, – deydi podpolkovnik Sherbek Turdiyev. – El osoyishtaligini ta'minlash yo'lidagi faoliyatim qadr topganidan nafaqat o'zim, balki oilam, yaqinlarim va hamkasblarim ham chin dildan quvondi. Albatta, menga bildirilgan yuksak ishonchni oqlashga, e'tirofga munosib bo'lish uchun bundan buyon ham yanada g'ayrat-shijoat bilan xizmat qilaman.

Profilaktika inspektorining xizmati faqat huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bilan cheklanmaydi. Uning har bir fuqaro bilan muloqoti, har bir murojaatga e'tibori, mahalla tinchligi yo'lidagi sa'y-harakatlari jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Birgina iliq so'z, oqilona maslahat ko'pincha katta mojarolarning oldini olishi mumkinligini u juda yaxshi biladi. Shu bois uning suhbatlarida odamiylik, tushunish va oqibat ustun turadi. Odamlar ham uni o'z farzandidek, ukasi yoki akasidek ko'rib, dardlarini yashirmay aytadilar. Ha, profilaktika inspektori uchun odamlar ishonchini qozonish, hurmatga sazovor bo'lish eng og'ir yumushlarni ham yengillashtiradi.

Sirasini aytganda, podpolkovnik Sherbek Turdiyev har kuni mahalla ko'chalarini aylanar ekan, bolalar yugurib kelib salom berishadi, yoshi ulug' otaxonlar duoga qo'l ochishadi. Zotan, tinchlik va osoyishtalikni asrash sharafli burch, bu yo'lda sobitqadam bo'lish esa chinakam sadoqat va fidoyilik namunasidir.

> Sherbek Turdiyev ham faoliyati davomida ko'plab oilaviy kelishmovchiliklarni bartaraf etdi, adashgan yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytardi, qanchadan-qancha insonlarga hayotda o'z o'rnini topishga ko'maklashdi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Ayol va jamiyat

«MENGA YORDAM BERA OLASIZMI?»

Ba’zan bir og‘iz so‘z insonning hayotini o‘zgartiradi. Goho esa qonun doirasida chiqarilgan adolatli qaror uning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Xorazm viloyati IIB JXX YHXB Yo‘l-patrul xizmati batalyoni komandirining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, mayor Sevara Xudayberganovaning xizmat faoliyatida ana shunday voqealar kam emas.



– Menga yordam bera olasizmi? Jarima yozishibdi. To‘g‘ri, mashinamni to‘xtatish mumkin bo‘lmagan joyda qoldirganman. Lekin masalani yana bir bor ko‘rib chiqishning iloji yo‘qmi?

Fuqaroning ovozida xavotir sezilardi. Mayor Sevara Xudayberganova esa shoshilib xulosa chiqarmadi.

– Avvalo holatni o‘rganamiz. Qonunda qanday imkoniyatlar belgilangan bo‘lsa, masala shu asosda hal qilinadi, – dedi u.

Bir qarashda odatiy murojaat. Qoidabuzarlik sodir etilgan, tegishli hujjat rasmiylashtirilgan. Endi jarima to‘lanishi kerak. Ammo har qanday holatga faqat yuzaki qarash to‘g‘ri xulosa chiqarishga imkon bermaydi. Murojaat yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazildi. Hujjatlar, huquqbuzarlikning holati va amaldagi qonunchilik normalari o‘rganildi.

Natijada fuqaro bir yil davomida mazkur turdagi qoidabuzarlikni ilk bor sodir etgani aniqlandi. Bunday holat uchun esa ogohlantirish chorasini qo‘llash mumkin. Shunga muvofiq, rasmiylashtirilgan bayonnoma bekor qilinib, fuqaroga ogohlantirish berildi.

– Demak, jarima to‘lashim shart emasmi? – quvonib so‘radi fuqaro.

– Sizga nisbatan qonunda nazarda tutilgan ogohlantirish chorasi qo‘llanmoqda. Ammo bu yo‘l harakati qoidalariga rioya qilmaslik mumkin degani emas. Boshqa bunday holat takrorlanmasligi muhim.

Fuqaro minnatdorlik bildirib chiqib ketdi. Bu voqeaning e’tiborli jihati jarimaning bekor qilinganida emas, masalaga qonuniy va xolis yondashilganida. Fuqaroning murojaati e’tiborsiz qoldirilmadi, unga tegishli huquqiy tushuntirish berildi.

Ichki ishlar organlari xodimining faoliyati haqida gap ketganda, ko‘pincha jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash kabi vazifalar ko‘z oldimizga keladi. Ammo bu xizmatning odamlar ko‘p ham ko‘ravermaydigan boshqa tomoni bor. Bu – bir oiladagi nizoning oldini olish, tushkunlikka tushgan ayolga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, yoshlarni xatodan qaytarish, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va ularning ishonchini qozonishdir.

Sevara Xudayberganova xotin-qizlar masalalari bilan ishlagan davrda ham, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish tizimida faoliyat yuritganida ham ana shu mas’uliyatni his etdi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar bilan ishlash alohida yondashuvni talab qiladi. Chunki bolaning bugungi xatosiga noto‘g‘ri munosabat bildirish uning ertangi hayotiga ham salbiy ta’sir qilishi mumkin.



Har bir holatning sababi bor. Har bir muammoning ortida muhit, tarbiya, oilaviy munosabatlar va boshqa omillar turadi. Shu bois profilaktika huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin chora ko‘rish emas. Uning asl mohiyati salbiy holat yuzaga kelishidan oldin sabablarni aniqlash va bartaraf etishdir.

Nilufar JABBOROVA,
o‘z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

Qonunchilikdagi yangiliklar

TEXNIK TIZIM TAKOMILLASHTIRILDI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-oktabrdagi 596-sonli qarori bilan yo‘l harakati qoidalari buzilganligini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari orqali qayd etish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Ushbu qarorga muvofiq 2026-yil 1-noyabrdan boshlab tadbirkorlar tomonidan o‘rnatilgan yo‘l harakati qoidalari buzilganligini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari orqali haydovchilarning transportni boshqarish va yo‘lovchilar tashishda xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariga rioya etmaslik qoidabuzarliklarini qayd etishga ruxsat berildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-apreldagi 232-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Unga ko‘ra, haydovchilarning xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariga rioya etmasligini foto va video qayd etish tizimiga qo‘yiladigan umumiy texnik talablarga muvofiq yangi tizim belgilandi. Bu tizim haydovchilarning xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariga rioya etmasligi holati bo‘yicha «Ma’muriy amaliyot» moduliga avtomatik ravishda bir qator ma’lumotlarni uzatish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Metrologik qiyoslash guvohnomasining raqami va amal qilish muddati, qoidabuzarlik aniqlangan sana va vaqt, qoidabuzarlik sodir etilgan joyning aniq koordinatalari shular jumlasidandir.

Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish tizimi orqali xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariga rioya etmasligini qayd etishda esa haydovchining yuz ko‘rinishi, xavfsizlik kamaridan foydalangan yoki foydalanmaganligi yuqori sifatdagi fotosuratlarda aks ettirilishi shart, deb belgilandi.

Shuningdek, mazkur qaror bilan belgilangan boshqa o‘zgartishlar ham tasdiqlandi. Jumladan, 2026-yil 1-noyabrdan boshlab yo‘l-patrul xizmati inspektorlari tomonidan 1.1 va 1.3 yo‘l chiziqlarini bosib o‘tish holatlarining huquqbuzarlik sifatida rasmiylashtirilishiga doir tartib belgilandi. Bundan buyon harakat tezligini nazorat qilishga mo‘ljallangan statsionar radarlar joylashgan hududda va ungacha kamida 250 metrdan kam hamda 500 metrdan ko‘p bo‘lmagan masofada «Radar» yo‘l belgisining o‘rnatilishi majburiy hisoblanadigan bo‘ldi.

IIV Yuridik ta’minlash
boshqarmasi

ILMGA INTILGAN MUTAXASSIS

Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi hamshirasi Xolida Tagayeva qariyb yigirma yildirki ushbu sohada faoliyat ko‘rsatadi. Hammaga birdek xushmuomalaligi, o‘z ishiga sadoqatliligi uchun jamoa orasida obro‘si bor.



– Xolida o‘z kasbining haqiqiy bilimdoni, – deydi viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi shifokori Ulug‘bek Nodirov. – U o‘z ustida ishlashdan aslo to‘xtamaydi. Doim izlanadi, o‘qiydi, o‘rganadi. Bu esa bemorlarni tez va aniq davolashda juda qo‘l keladi.

Rostdan ham, bir qarashda yosh ko‘rinadigan hamshira ayni paytda Toshkentdagi Sarbon universitetida masofadan tahsil olmoqda. U bo‘lajak dermatolog, kosmetolog. Bir-ikki yilda malakali shifokorga aylanishiga shubha yo‘q. Boisi bunda uning yigirma yillik tajribasi qo‘l kelishi aniq.

Xolida Tagayevaning ikki nafar o‘g‘li bor. Ularning har ikkalasi ham ichki ishlar organlari xodimi. Katta o‘g‘li safdor Shahzodbek Umarov Sirdaryo viloyati IIB Tashkiliy bo‘limi Navbatchilik qismi navbatchisi bo‘lsa, ikkinchi o‘g‘li safdor Samandar Umarov viloyat IIB huzuridagi Qo‘riqlash xizmatida faoliyat ko‘rsatadi. Ular o‘z onalari bilan cheksiz faxrlanishadi. Ham kasbida, ham oilasida baxt topgan Xolida buning zamirida halol mehnat, kurash, sabot yotganini yaxshi biladi. Shuning uchun bundan keyin ham odamlar salomatligi yo‘lida astoydil mehnat qilish niyatida.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

O‘Z ISHIGA MAS’ULIYAT BILAN



Shifokorning har bir kuni yangi murojaat, yangi tashvish va alohida mas’uliyat bilan boshlanadi. Ba’zan bemorga to‘g‘ri tashxis qo‘yish uchun birgina tahlillar natijasi kifoya qilsa, gohida uning shikoyatlarini diqqat bilan tinglash, holatini chuqur o‘rganish talab etiladi. Namangan viloyati IIB Poliklinikasi oilaviy shifokori Ikromjon Usmonov shuning uchun o‘z ishiga doimo mas’uliyat bilan yondashadi.

Uning kundalik faoliyati bemorlarni qabul qilish, salomatlik holatini baholash, kasalliklarning oldini olish va zarur tibbiy tavsiyalar berish bilan bog‘liq. Ko‘p yillik tajribasi davomida terapiya, funksional diagnostika va umumiy amaliyot yo‘nalishlarida ishlab, kasbiy mahoratini oshirgan.

– Bugun ichki ishlar organlari xodimlari salomatligini muhofaza qilish, ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bizning vazifamiz esa yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, har bir bemorga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishdir. Ayniqsa, kasalliklarning oldini olish muhim. Chunki inson o‘z salomatligiga qanchalik mas’uliyat bilan yondashsa, shunchalik ko‘p xastaliklarning oldini olish mumkin, – deydi lavhamiz qahramoni.

Jahongir TO‘XTASINOV,
o‘z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

POSTDA Shifokor

2026-yil 6-noyabr / juma
№ 45 (4791)

El-yurt salomatligi – jamiyatning bebaho boyligidir. Tinchlik va sog‘liq bo‘lgan joyda albatta o‘sish va o‘zgarish, baxtli va farovon hayot bo‘ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV



MEHRIDARYO SALOMATLIK POSBONLARI

Yurtimizda inson qadri, uning salomatligi eng ulug‘ qadriyat hisoblanadi. Kun-u tun bemorlar boshida parvona bo‘lib, o‘z hayotini el xizmatiga bag‘ishlagan oq xalatli fidoyi shifokorlarimizning matonatli mehnati esa har qanday yuksak tahsinga loyiq.

Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan tayyorlangan ushbu «Postda Shifokor» maxsus ilovamiz mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimidagi tibbiyot muassasalarida fidokorona mehnat qilayotgan salomatlik posbonlari faoliyatiga bag‘ishlanadi.

Ichki ishlar organlari tizimidagi tibbiyot muassasalarining malakali shifokorlari, jonkuyar hamshiralari va boshqa xodimlari bemorlarni davolash asnosida, qalblarga umid va ishonch ham bag‘ishlaydi. Har qanday murakkab sharoitda, tun-u kun xizmatda bo‘lgan fidoyilarning kasbga sadoqati barchamizda cheksiz hurmat uyg‘otadi.

Umid qilamizki, mazkur yangi ilova sharafli kasb sohiblariga minnatdorlik ifodasi, ularning mashaqqatli va matonatli faoliyatiga ko‘rsatilgan yuksak ehtirom ramzi sifatida qabul qilinadi.

SHIFO BAXSH ETIB...

Ichki ishlar organlari xodimlari kuni arafasida uzoq yillik fidokorona mehnati va yuksak kasbiy mahorati uchun shifokor, podpolkovnik Irina Karimova II darajali «Salomatlik» ordeni bilan taqdirlandi.



U ichki ishlar organlari tibbiyot xizmatidagi faoliyatini 1995-yilda Toshkent shahar IIBB Poliklinikasida uchastka shifokor-terapevti sifatida boshlagan. Keyinchalik ko‘p yillar IIV Markaziy poliklinikasi terapiya bo‘linmasiga rahbarlik qildi. 2016-yildan boshlab uning xizmati IIV Markaziy harbiy-tibbiy komissiyasi bilan bog‘liq bo‘ldi: bosh ekspert – shifokor-terapevt sifatida shaxsiy tarkib sog‘lig‘ini baholashga oid murakkab masalalarni muvofiqlashtirdi.

Lavhamiz qahramonining boy bilim va tajribasi yangi bosqichda ham qo‘l kelmoqda. 2023-yildan buyon Irina Karimova IIVning «O‘zbekiston» sanatoriysida kardiologiya bo‘linmasini boshqarish jarayonida nafaqat shifokor sifatida iste’dodini, balki tashkilotchilik qobiliyatini ham namoyon etmoqda. Uning rahbarligida bo‘linmada kardiologiya yo‘nalishida diagnostika standartlari sanatoriy imkoniyatlari bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirilib, reabilitatsiya ishlari sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqildi.


Soha faxriylari sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik lavhamiz qahramoni uchun ustuvor vazifalar qatoridadir. Bemorlar uni nafaqat o‘z ishining mohir mutaxassisi, balki qalbi daryo, samimiy inson sifatida hurmat qilishadi.

– Mehnatimga berilgan yuksak baho uchun minnatdorman. Mukofotni butun jamoamiz xizmatining e’tirofi deb bilaman, – deydi podpolkovnik I.Karimova. – Bunday rag‘bat bizni yanada g‘ayrat-shijoat bilan xizmat qilishga ruhlantiradi.

Radik TUMPAROV,
o‘z muxbirimiz.

«HOY UKAJON, NIMA GAP?»

Biror shifoxonaning nevrologiya bo‘linmasi yonidan o‘tgan ayrim kishilar boshini bir irg‘ab qo‘yadi. Bu harakatni so‘zsiz tushunish mumkin. Chunki bu yerda ishqalanaverganidan yupqarib ketgan avtomashina g‘ildiragining kolodkasi kabi asab tolalari shikastlangan bemorlar davolanishadi. Shuning uchun IIV Markaziy gospitali Nevrologiya bo‘linmasi boshlig‘i, podpolkovnik Nodira Jabborova rahbarligida xizmat qilayotgan barcha shifokorlarning ishini oson bilmaslik kerak.



Nega? Chunki ular vaqtini boshqa shifokorlar kabi bemorlarni tekshirish, ularga tashxis qo‘yish, dori-darmon tarqatish yoki muolaja bilan birga, ish vaqtining kamida uchdan bir qismini «Hoy otaxon, hoy akajon, ukajon, nima bo‘ldi? Keling, avval o‘zingizni bosib oling», degan dalda va iltimoslar bilan ham o‘tkazishadi. Shuning uchun bu yerdan shifo topgan bemorlardan biri sifatida ulardan ikki hissa minnatdor bo‘ldim. Chunki o‘zim ham ularni bir-ikki bor «Hoy aka, nima gap?», deyishga majbur qildim-da.

Kasb bayrami munosabati bilan mazkur bo‘linma xodimlarini chin qalbimdan tabriklayman. Zahmatli va mashaqqatli mehnatlari samarasini ko‘rib, ezgu niyat va maqsadlari ro‘yobga chiqishini tilayman.

Shuhrat RO‘ZIYEV,
iste’fodagi podpolkovnik.

SHIRINSO‘Z HAMSHIRA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV Tibbiyot bo‘limiga qarashli gospitalning fizioterapiya hamshirasi Baxitgul Ibadullayeva ko‘p yillardan buyon ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a’zolari salomatligini tiklashga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Baxitgulning tibbiyot sohasiga mehr qo‘yishida onasi Olmaxon opaning o‘rni beqiyos. U ilgari Shumanay tumani Tibbiyot birlashmasida ishlagan. Onasining bemorlarga mehribonligi va kasbiga sadoqati qizining qalbida ham ushbu sharafli kasbga nisbatan iliq hislarni uyg‘otgan.

Fizioterapiya hamshirasining faoliyatida har bir muolaja, har bir harakat katta mas’uliyat talab etadi. Baxitgul Ibadullayeva bu mas’uliyatni chuqur his qilgan holda, vazifasiga doimo jiddiy yondashadi. Muolajalarni e’tibor va sinchkovlik bilan bajarish, bemorlarga shirin so‘z bilan dalda berishni o‘z ishining ajralmas qismi deb biladi.

– Kasbimizning mas’uliyati katta. Faoliyatimiz davomida e’tiborsizlikka yo‘l qo‘yishga haqqimiz yo‘q, chunki gap inson salomatligi haqida ketmoqda. Eng asosiysi, dardiga davo izlab kelgan insonlar bizdan rozi bo‘lib, yuzlarida tabassum bilan qaytishidir, – deydi Baxitgul Ibadullayeva.

Samarali mehnat, kasbiga sadoqat va insonlarga ko‘rsatilayotgan beminnat xizmat o‘z qadrini topmay qolmaydi. Uning ko‘p yillik faoliyati munosib e’tirof etilib, 2023-yilda «Ibratli ayol» ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.



Bu yuksak e’tirof uning nafaqat kasbiy mahoratiga, balki jamiyatdagi o‘rni, mehnatsevarligi va yuksak insoniy fazilatlariga berilgan haqqoniy bahodir.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

ENG KATTA BURCH



Odatda ichki ishlar xodimini burchini ado etayotgan pallada ko‘ramiz. Ammo tun-u kun osoyishtalik uchun kurashadigan bu insonlarning ham charchog‘i, dardi, salomatligiga ehtiyoji bor. Ular qiyin damda kimga suyanadi? Albatta, oq xalatli insonlarga. Shifokorlikning ulug‘ligi ham shunda: u faqat kasallik bilan emas, insonning umidi bilan ham ishlaydi.

Xorazm viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi gospitali shifokor-nevrologi Madamin Babajanovning kasb yo‘li ana shu mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq.

– Xizmatdagi odam ko‘pincha o‘zini oxirgi o‘ringa qo‘yadi, – deydi u. – U boshqalarning tinchligini o‘ylaydi, ammo o‘z sog‘lig‘ini ortga surishi mumkin. Biz esa uning nafaqat kasalligini aniqlashimiz, balki o‘ziga ham e’tibor berishi zarurligini tushuntirishimiz kerak. Men uchun bemor – avvalo, inson. Uning ishonchini oqlash – shifokorning eng katta burchi.

Bu so‘zlar Madamin akaning kasbiy yo‘lini tasavvur qilishga yordam beruvchi badiiy talqindir. Ammo uning mehnat faoliyatiga oid aniq raqamlar ham o‘zicha so‘zlaydi: ko‘p yillik shifokorlik tajribasi, ichki ishlar tizimidagi faoliyati va 2018-yilda berilgan «Tibbiyot a’lochisi» ko‘krak nishoni.

Shifokor uchun eng katta mukofot bu – dardi yengillashgan bemorning samimiy tabassumi, eshikdan chiqayotib ortiga burilib aytgan bir og‘iz «rahmat»idir. Zero, bir inson dardiga malham bo‘lish – kasb, uning qalbida umid uyg‘otish esa chinakam insoniylikdir.

Nilufar JABBOROVA,
o‘z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

«KASBIMGA MEHRIM BO‘LAKCHA»

Jizzax viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi stomatolog shifokori Maryam Berdiqulova mazkur dargohda qariyb 37 yildan buyon mehnat qilib kelmoqda. Mazkur bo‘lim ham yillar davomida bir necha bor ta’mirlanib, zamonaviy tibbiy texnik-jihozlar bilan boyitildi. Bugun esa muassasa uchun yangi bino qurilmoqda.



Ayni damda Maryam opa o‘zini shu dargohning ajralmas bir bo‘lagidek his etadi. Chunki ko‘p yillarni yelkama-yelka mehnat qilib kelayotgan Zamira Iskandarova, Norsuluv To‘ranova va Abduvoid Hojiboyev kabi fidoyi hamkasblari bilan birgalikda ortda qoldirdi. Davron Hakimov singari yosh mutaxassislarga ustozlik qilib, ularga soha sirlarini o‘rgatdi.

– Pensiyaga chiqqanimga o‘n yildan oshdi. Lekin mehr qo‘ygan ish joyingdan, yillar davomida bir oiladek bo‘lib ketgan jamoangdan uzilish oson emas ekan. Ayniqsa, jamoamiz ahil va bir-biriga mehribon, – deydi lavhamiz qahramoni.

Maryam opaning oilasi ham tom ma’noda tibbiyot ahlidan tashkil topgan. Turmush o‘rtog‘i Abduvali Berdiqulov tish shifokori. O‘g‘li Alisher farmatsevt, Akmal reanimatolog-shifokor, qizlari Adiba va Munira esa hamshiralik kasbini tanlashgan. Bu xonadonda oq xalat kasbiy libosgina emas, u avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan mehr va insonparvarlik belgisi hamdir.

Muqaddas SAPAROVA,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

USTOZ SABOG‘I – SHOGIRD KAMOLI

Inson hayoti va salomatligini asrash, ichki ishlar organlari xodimlari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish tizim tibbiyot xizmati zimmasidagi eng mas’uliyatli vazifadir. Bu borada Qashqadaryo viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi xodimlari yetarli tajriba to‘plagan.

Sohada uzoq yillar xizmat qilib, o‘ziga xos maktab yaratgan ustoz – iste’fodagi mayor Faxriddin Husanov hamda uning shogirdi – SENM boshlig‘i, podpolkovnik Rustam Daminovning ibratli faoliyatini alohida e’tirof etish joiz. Binobarin, ularning xizmat yo‘llari bir kasb, bir maqsad va bir mas’uliyat atrofida birlashgan.

Iste’fodagi mayor F. Husanov bugungi kunda ham markazda shifokor sifatida mehnat qilib, boy tajribasini shogirdi bilan baham ko‘rib kelmoqda. Ustozning tajribasi va shogirdning g‘ayrati, izlanishi hamda zamonaviy yondashuvi o‘zaro uyg‘unlashib, xizmat samaradorligi yanada oshmoqda.

– Sanitariya-epidemiologiya xizmati sirtdan qaraganda ko‘pincha ko‘zga tashlanmaydi, ammo o‘ta mas’uliyatli va muhim soha, – deydi Faxriddin



Husanov. – Shaxsiy tarkib o‘rtasida epidemiologik barqarorlikni saqlash va gigiyena me’yorlariga amal qilinishini ta’minlash doimiy e’tiborni talab etadi.

Ustoz va shogirdni yagona maqsad – Vatanga sadoqat, kasbga muhabbat va inson salomatligini muhofaza qilish mas’uliyati birlashtirib turadi. Zero, ustozning eng katta yutug‘i – munosib shogird tayyorlash, shogirdning muvaffaqiyati esa berilgan saboqlarni amalda oqlab, ezgu ishlarni davom ettirishdir.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

DARDLARGA DARMON BO‘LIB

Buxoro viloyati ichki ishlar organlari xodimlarining salomatligini tiklashda viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi malakali shifokor va hamshiralarining xizmati beqiyos. Ular aniq tashxis, belgilangan davo choralari, xushmuomalaligi bilan bemorlar dardiga malham bo‘lib kelayotir. Nigina Hamrayeva ana shunday fidoyi shifokorlardan biri.

Buxoro davlat tibbiyot institutini tamomlab, psixiatriya yo‘nalishi bo‘yicha ordinaturada tahsil olgan Niginaxon dastlab viloyat ruhiy asab kasalliklari dispanserida ishladi. Bu yerda tajribali shifokorlardan kasb sirlarini o‘rganib, malakasini oshirdi.



N. Hamrayeva viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi poliklinikasida faoliyatini davom ettirganida ham ko‘nikma hosil qilishda qiynalmadi. Qisqa vaqt ichida ko‘plab ichki ishlar organlari xodimlari, faxriylar hamda ularning oila a’zolari salomatligini tiklashga munosib hissa qo‘shdi.

– Oliy toifali psixiatr-shifokor Nigina Hamrayeva katta tajribaga ega bo‘lgan mutaxassis. Shu bois jamoada alohida hurmat va e’tirofga sazovor. Bemorlarni sog‘lomlashtirishda hamkasblariga o‘rnak bo‘lib kelyapti. Qolaversa, u jamoatchilik ishlarida ham faol, – deydi viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi poliklinikasi boshlig‘i, leytenant Laziz Qayumov.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

BEMOR SOG‘AYISHI – UNING QUVONCHI

Andijon viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi poliklinikasi umumiy amaliyot shifokori Temurbek G‘ofurov oq xalat kiyish inson salomatligi va hayoti uchun mas’uliyat ekanini chuqur anglaydi. Shu bois u faqat bemorni qabul qilish bilan cheklanmay, davolash natijasiga ham o‘zini mas’ul deb biladi.

Lavhamiz qahramoniga murojaat qiluvchi bemorlarning salmoqli qismini soha faxriylari tashkil etadi. Ularda ko‘pincha arterial gipertoniya, surunkali bronxit va hazm tizimi bilan bog‘liq kasalliklar uchraydi. Shu bois shifokor davolash bilan birga, profilaktikaga ham alohida e’tibor qaratib, uchrashuvlarda to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik va tibbiy ko‘riklardan o‘z vaqtida o‘tishning ahamiyatini muntazam tushuntirib boradi.

– Temurbek yosh bo‘lishiga qaramay, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashadigan izlanuvchan mutaxassislarimizdan, – deydi viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi boshlig‘i, mayor Jasurbek Jo‘rayev. – Uning bemorlar salomatligi uchun qayg‘urishi, har bir murojaatga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi tahsinga loyiq.

Bu kasbda odamlar ishonchini qozonish va ularning dardiga malham bo‘lish uchun bilim, tajriba va fidoyilik nihoyatda muhim. Buni yaxshi anglagan yosh shifokor izlanishlari va bemorlarga bo‘lgan samimiy munosabati bilan zimmasidagi vazifani sidqidildan




ado etib kelmoqda. Bunday yosh mutaxassislarning safi kengayishi ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yanada oshirishga, shuningdek, soha rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Saminjon HUSANZODA,
o‘z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

KICHIK JUSSADAGI TOG‘DEK IRODA



Guljamol Qorayevaning tibbiyot sohasidagi mehnat faoliyati 1998-yilda oddiy patronaj hamshirasi sifatida boshlangan. O‘shandan buyon oq xalatga bo‘lgan sadoqat, inson salomatligiga daxldor mas’uliyat va odamlarga naf keltirish istagi uning hayotiy hamrohiga aylangan. 2010-yildan esa Surxondaryo viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi poliklinikasi laboranti sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

– Rahmatli otam Musurmon Qorayev ichki ishlar organi xodimi bo‘lgan. U kishining kasbiga doim havas qilganman. Bugun esa ana shu soha vakillarining salomatligini saqlash yo‘lida xizmat qilyapman, – deydi u mamnuniyat ila. – Kasbimni yaxshi ko‘raman. Vazifamni chin yurakdan bajarishga harakat qilaman. Imkon qadar bemorlarni natijalar uchun kuttirmaslikka intilaman.

Guljamol opaning ish faoliyati faqat poliklinika laboratoriyasi bilan cheklanmaydi. U hamkasblari bilan birga tumanlarga uyushtiriladigan sayyor tibbiy ko‘riklarda ham ishtirok etadi.

Lavhamiz qahramoni o‘z baxtini katta yutuqlar yoki moddiy ne’matlardan emas, balki bir insonning og‘irini yengil qilish, kimningdir dardiga malham bo‘lishdan izlaydi. Uning nazarida, mehnatning eng katta mukofoti – odamlarga kerakli bo‘lish.

Guljamol opaning hayotida oila alohida o‘rin tutadi. U bu haqda gapirar ekan, yuzida tabassum paydo bo‘ladi:

– Bir nafar farzandim bor, to‘rt nafar nevaramning buvisiman. Ba’zan hazillashib, bitta bolam to‘rtta bo‘ldi, deyman. Ishim esa – hayotim. Hamkasblarim bilan ahil jamoa bo‘lib ishlaymiz.

Umri mehnatda o‘tgan bu ayol hayotning turli sinov va qiyinchiliklarini sabr-bardosh bilan yengib o‘tgan. Tashqi ko‘rinishidan nozik va kichik jussali bo‘lsada, qalbida tog‘dek matonat, iroda va hayotga muhabbat mujassam.

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

EPIDEMIOLOGIK VAZIYAT –



Farg‘ona viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi jamoasi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarib, belgilangan obyektlarda sanitariya nazoratini samarali olib bormoqda. Bu sohada epidemiologik barqarorlikni saqlash, xodimlar orasida turli yuqumli kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Muassasamiz zamonaviy jihozlar va tibbiy uskunalar bilan ta’minlangan, – deydi markaz boshlig‘i, katta leytenant Sardor Homidov. – Jumladan, immunoferment tahlili (IFA), polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) va bakteriologik laboratoriyalarimizda malakali mutaxassislar tezkor va aniq tahlillar o‘tkazib, xodimlarga sifatli xizmat ko‘rsatib kelmoqda.



OILAVIY QADRIYATGA AYLANGAN KASB

Samarqand viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi poliklinikasi shifokor-rentgenologi Abdurahim Boqiyev uchun tibbiyot – oilaviy qadriyat, an’anaga aylangan kasb. Boisi, otasi Temur aka va onasi Tatyana opa umrlarini insonlar salomatligini asrashga bag‘ishlagan fidoyi shifokorlar bo‘lishgan.

A. Boqiyev 2011-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutini, 2021-yilda esa klinik ordinaturani tamomladi. Mutaxassis sifatida u rentgenologiya yo‘nalishini tanladi. Bunda har bir tasvir, har bir tafsilot va xulosa katta ahamiyatga ega bo‘lib, shifokordan chuqur bilim, yuksak diqqat-e’tibor hamda katta mas’uliyat talab etadi.

Bugun u xodimlarning salomatligini asrash, rentgen tekshiruvlari orqali ularning sog‘lig‘ini baholash va aniq xulosa berishdek mas’uliyatli vazifani bajarib kelmoqda.

– Zimmamdagi vazifa oddiy tibbiy ko‘rik bilan cheklanmaydi. Ichki ishlar organlari xodimlari kundalik xizmat jarayonida turli mas’uliyatli, ba’zan jismoniy va ruhiy jihatdan murakkab vaziyatlarga duch keladilar. Bunday sharoitda ularning salomatligini asrash, kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlash va zarur tibbiy yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega, – deydi A. Boqiyev.

Ota-onasining: «Gippokrat qasamyodiga sodiq holda ish olib borishing, oq xalatga dog‘ tushirmasliging kerak» degan o‘gitlarini lavhamiz qahramoni o‘z hayotida oltin qoidaga aylantirgan. Shuningdek, uning turmush o‘rtog‘i Sofiya Muqumova Samarqand shahridagi xususiy shifoxonada terapevt bo‘lib ishlaydi. Oilaviy muhit ularning kasbga bo‘lgan mas’uliyatini yanada oshirgan.

Umida MAMADALIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

NAZORATDA

Joriy yilning o‘tgan davrida IFA laboratoriyasida 3 mingga yaqin tahlil o‘tkazilib, aniqlangan yuqumli kasalliklarning sabablarini aniqlash bo‘yicha 43 ta surishtiruv olib borildi. Beshta holatda sanitariya qoidalari buzilgani aniqlanib, tegishli tartibda bayonnomalar rasmiylashtirildi.

Diareya, suvchechak, gripp kabi mavsumiy kasalliklarning oldini olish borasida targ‘ibot ishlari ham muntazam tashkil etilmoqda.

Ayni paytda asosiy e’tibor tizimdagi obyektlarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash va ushbu mavsumda uchrashi mumkin bo‘lgan kasalliklarning oldini olishga qaratilgan.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.

Farg‘ona viloyati.



Актуально

ОТКРЫТЫЙ ДИАЛОГ

Выездные приемы – эффективный инструмент решения вопросов, волнующих граждан.



Под руководством министра внутренних дел состоялся выездной прием, в котором также приняли участие его заместители, руководители отраслевых структур и ответственные сотрудники.

Прием проходил в здании спортивно-оздоровительного комплекса «Жар». Мероприятие было организовано в удобном для граждан формате. Если жители города Ташкента и Ташкентской области общались с руководством системы лично, то соотечественники, проживающие в Каракалпакстане и отдаленных регионах, подключились к диалогу с помощью средств видеоконференцсвязи.

Всего на прием поступило 481 обращение. Почти половину из них – 236 вопросов – удалось решить на месте. Остальные 245 обращений, требующие дополнительной проработки, переданы в профильные службы и взяты на строгий контроль.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

Цифровая грамотность

ЗАЩИТИТЕ СВОЙ ГАДЖЕТ!



Цифровые технологии стали неотъемлемой частью нашей жизни, однако вместе с тем растут и масштабы киберпреступности. Как свидетельствует статистика, значительная часть устройств подвергается кибератакам именно после того, как в них устанавливаются вредоносные APK-файлы.

«APK Qo‘riqchi» – надежная защита вашего гаджета. Эта утилита создана для того, чтобы вовремя выявлять и блокировать потенциально опасные файлы.



Установите официальное приложение на свое устройство:

· Play Market – откройте приложение Google Play Market на телефоне;

· поиск – введите в строку поиска «APK Qo‘riqchi»;

· выбор – выберите нужное приложение из появившихся результатов;

· установка – нажмите кнопку «Установить» (Install) и дождитесь загрузки приложения;

· разрешения – откройте приложение и предоставьте необходимые разрешения для его корректной работы;

· активация – включите функцию защиты.

Не теряйте бдительность в цифровой среде!

Ко Дню медицинских работников

ПРИЗВАНИЕ – ИСЦЕЛЯТЬ

– Контингент поликлиники медицинского отдела ГУВД Ташкента немалый – сотрудники органов внутренних дел, члены их семей, ветераны, а также представители прокуратуры, судов, таможни, БПИ, несущие службу в столице, – говорит заместитель начальника поликлиники по ЭВН майор Абдушукур Абдукаримов.



В системе ведомственного здравоохранения Абдушукур Абдураимович с 2015 года – с того самого времени, когда был принят в медслужбу ГУИН. В 2019 году переведен в поликлинику медотдела ГУВД экспертом-хирургом военно-врачебной комиссии. Его опыт, экспертные знания востребованы и в нынешней должности.

«Профессионал своего дела», – так отзываются о нем коллеги.

– В нашей сфере необходимы глубокие знания, большое терпение, чуткость. И, конечно же, искреннее желание помочь человеку, – отмечает майор А. Абдукаримов.

Рафик ЕНИКЕЕВ









Госпиталь МВД Республики Узбекистан в городе Намангане – специализированное ведомственное медицинское учреждение. Благодаря поэтапной модернизации здесь созданы необходимые условия для эффективного проведения профилактических, лечебно-диагностических и реабилитационных мероприятий для прикрепленного контингента.

Постановление и его исполнение

«ИККИНЧИ ИМКОН» – ШАГ В БУДУЩЕЕ

Постановлением Президента Узбекистана «О мерах по обучению современным профессиям молодежи в учреждениях по исполнению наказания» от 27 марта 2026 года предусмотрены меры по оказанию содействия оступившимся молодым людям после освобождения в успешной интеграции в общество.

В настоящее время в учреждениях по исполнению наказания Ташкентской, Навоийской и Кашкадарьинской областей начата реализация Национального проекта социальной реабилитации «Иккинчи имкон» («Второй шанс»). Он направлен на обучение лиц от 18 до 30 лет современным цифровым профессиям. Учебные курсы организуются на основе 8 – 12-месячных интенсивных программ. Привлеченные к курсам изучают также иностранные языки (английский, русский, китайский и др.).

Документом предусмотрено, что в других регионах проект будет реализовываться с 1 марта 2027 года.

Шахбоз МУРТАЗАЕВ

POSTDA
НА ПОСТУ ✷ AT THE POST

Holders of a prestigious state award

HEALING WITH COMPASSION...

On the eve of the Day of internal affairs officers, physician Lieutenant Colonel Irina Karimova was awarded the Order of «Salomatlik», II Class, in recognition of her many years of dedicated service and outstanding professional expertise.



She began her career in the medical service of the internal affairs bodies in 1995 as a district physician-therapist at the Tashkent city DIA Main directorate polyclinic. She subsequently headed the Therapy department of the Ministry of Internal Affairs Central polyclinic for many years. From 2016, she continued her service at the MIA Central military medical commission, where, as chief expert and physician-therapist, she coordinated complex matters related to assessing the health of personnel.

Irina Karimova's knowledge and experience continue to serve her well in her current role. Since 2023, she has headed the Cardiology department at the MIA «Uzbekistan» Sanatorium, demonstrating not only her medical expertise but also her strong organisational skills. Under her leadership, cardiological diagnostic standards have been successfully integrated with the sanatorium's capabilities, bringing rehabilitation services to a new level of quality.

Caring for the health of retired officers and veterans remains one of her top priorities. Patients respect her not only as a highly skilled specialist but also as a warm-hearted and sincere person.

– I am grateful for this high recognition of my work. I consider this award an acknowledgement of the contribution made by our entire team, – says Lieutenant Colonel I. Karimova.

RECOGNITION AND HONOUR

Serving the nation and protecting public peace are sacred duties of every citizen. Major Artur Daujanov, who has been honourably fulfilling this important responsibility, was awarded the prestigious state award, the «Shuhrat» Medal, on the occasion of the Day of internal affairs officers.



He currently serves as head of DIA № 3 of the Kungrad district department of internal affairs. His unit is responsible for maintaining peace and public order in the territory of the «Karakalpakstan» settlement citizens' assembly. Serving in this remote border area requires a high level of professional skill, determination and vigilance.

According to the major, thanks to the dedication of the unit's officers and cooperation with relevant agencies and the local community, the area has maintained its «green» category for nearly three years. He considers the award recognition of the hard work of the entire team.

Born and raised in Muynak district, Artur Daujanov graduated from the faculty of Physical education at Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz. He initially worked in education before joining the internal affairs service in 2011. Throughout his career, he has served in fire safety, crime prevention and criminal investigation. Since 2025, he has held his current position.

Together with his wife, Boghdagul Azbergenova, he is raising their three children: Gulsanem, Rasul and Biybisanem. His dedicated service stands as an example of devotion to safeguarding the peace and security of the homeland.

Citizens' interests come first

OPEN DIALOGUE

The reforms being implemented in our country are rooted in the noble principle of «For human dignity». Outreach meetings organised by senior officers of the internal affairs bodies play an important role in maintaining direct communication with the public and ensuring lawful and prompt solutions to citizens' concerns.



Another such outreach reception was held under the leadership of the minister of Internal Affairs, Lieutenant General Aziz Tashpulatov. The event was attended by the minister's deputies, heads of specialised departments and other responsible officials.

During the meeting, appeals from individuals and legal entities were thoroughly reviewed, with particular attention given to providing an objective legal assessment of each issue and identifying appropriate measures. Residents of Tashkent city and Tashkent region met with the minister in person, while representatives of the Republic of Karakalpakstan and other remote regions participated via videoconference.

A total of 481 appeals were considered during the reception led by the minister. Of these, 236 were resolved on the spot, while the remaining 245, requiring further examination, were placed under strict supervision and referred to the relevant departments.

At receptions conducted by regional internal affairs authorities, another 199 appeals were reviewed. Of these, 74 were resolved positively, while relevant officials were assigned to examine the remaining 125 and identify appropriate solutions.

Patriotism and excellence

COURAGE BEHIND GRACE

The «Followers of Tomyris» competition was held under the slogan «Love for the Homeland lives in my heart».

Seven teams representing law enforcement agencies and military institutions competed in seven challenges. Participants demonstrated their knowledge and abilities in the «Introduction», «Intellectual Challenge», marksmanship, military and physical training, «Skillful, thrifty and neat homemaker», and «Talent and mastery» categories. In particular, the traditional cooking and creative performance challenges provided an opportunity to showcase the participants' diverse talents.

The competition was not merely a contest for victory; it also became a platform for sharing experience and strengthening friendship, unity and mutual cooperation.

According to the results, the Ministry of Internal Affairs team won the «Masters of courage» nomination, while the team of the State Security Service of the President of the Republic of Uzbekistan took first place in the «Precise shot» nomination. The State Security Service and the Customs Committee were named winners in the «Intellectual challenge» nomination. The National Guard and the Ministry of Defence won the «Boundless energy» nomination, while the Ministry of Emergency Situations team claimed victory in the «Homeland in my heart» nomination.

The winning teams were presented with commemorative gifts by the Committee on family and women.



Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

IIV tibbiyot muassasalarida

INSON SALOMATLIGI YO‘LIDA

Mamlakatimizda el-yurt tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashdek mas’uliyatli vazifani zimmasiga olgan ichki ishlar organlari xodimlarining salomatligini muhofaza qilishda IIV Markaziy gospitali alohida o‘rin tutadi. Qariyb 70 yillik tarixga ega bo‘lgan ushbu tibbiyot muassasasi bugun nafaqat ko‘p tarmoqli diagnostika, davolash va reabilitatsiya markazi, balki zamonaviy tibbiy texnologiyalar, malakali mutaxassislar va ilg‘or davolash usullari uyg‘unlashgan yirik tibbiyot maskanlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda.

TARIX VA TARAQQIYOT UYG‘UNLIGI

IIV Markaziy gospitali tashkil etilgan 1954-yilda uning tarkibida atigi to‘rtta bo‘linma faoliyat ko‘rsatgan. O‘tgan davr mobaynida muassasa bosqichma-bosqich rivojlanib, moddiy-texnik bazasi, tibbiy imkoniyatlari va xizmat ko‘rsatish ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida gospitalda bo‘limlar soni 26 taga yetkazilib, muassasa 500 nafar bemorni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 1998-yilda u yangi hududga ko‘chirilib, mavjud binolar kapital ta’mirlandi, yangi binolar barpo etildi. Hudud obodonlashtirilib, ko‘kalamzorlashtirildi, bemorlar uchun qulay va shifobaxsh muhit yaratildi.

Bugun gospital joylashgan 9 gektarlik hududda davolash, xirurgiya, reabilitatsiya va diagnostika binolari bilan bir qatorda, tibbiy xizmatni ta’minlovchi yordamchi infratuzilma obyektlari ham mavjud. Muassasa yil davomida uzluksiz faoliyat ko‘rsatib, bemorlarga kompleks tibbiy yordam ko‘rsatadi.





TASHXISDA ANIQLIK — DAVOLASHDA SAMARA

Gospitalda diagnostik xizmatlarni modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 1999-yilda nurli diagnostika markazining tashkil etilishi muassasa tarixida muhim voqea bo‘ldi. Shu davrda zamonaviy kompyuter tomografiyasi amaliyotga joriy etildi. Keyinchalik diagnostika imkoniyatlari yanada kengayib, 2007-yilda magnit-rezonans tomografiyasi, 2011-yilda esa multispiral kompyuter tomografiyasi uskunalari ishga tushirildi. Bugun gospitalda MRT, rentgenografiya va rentgenoskopiya, ultratovush diagnostikasi, EKG, sutkalik Xolter EKG monitoringi, sutkalik arterial qon bosimini monitoring qilish (SMAD), EEG, EXOEG, EXOKG, qon tomirlar doplerografiyasi kabi zamonaviy tekshiruvlar amalga oshiriladi. 2020-yilda diagnostika bo‘limi Yaponiyada ishlab chiqarilgan «Canon» raqamli rentgen apparati bilan jihozlandi. 2021-yilda esa «SIEMENS» kompaniyasining 1,5 teslali zamonaviy MRT uskunasi ishga tushirildi. Bunday zamonaviy texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishi kasalliklarni erta aniqlash, aniq tashxis qo‘yish va bemor uchun individual davolash taktikasini belgilash imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

YANGI IMKONIYATLAR

2008-yildan boshlab angiografiya bo‘limi shakllantirilib, zamonaviy uskunalar asosida diagnostika va davolash amaliyotlari yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi kunda bosh miya qon tomirlari, buyrak va buyrak usti bezi kasalliklari, ishemik va gemorragik insultlar, yurak ishemik kasalliklari, periferik arteriyalardagi okklyuzion holatlar, qandli diabetning oyoq tomirlaridagi asoratlari hamda ayrim tug‘ma tomir nuqsonlari – arteriovenoz malformatsiyalarda angiografik diagnostika va davolash usullaridan foydalanilmoqda. 2025-yilda zamonaviy «PHILIPS AZURION 5» angiografik tizimining o‘rnatilishi murakkab angiojarrohlik amaliyotlarini yanada keng joriy etish imkonini berdi.



TEXNOLOGIYA VA TAJRIBA

2016-yilda gospital hududida yangi xirurgiya binosining barpo etilishi jarrohlik xizmatini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Bino zamonaviy jarrohlik asbob-uskunalari bilan jihozlanib, umumiy va ixtisoslashtirilgan jarrohlik xizmatlari yo‘lga qo‘yildi. Bugun gospitalda an’anaviy jarrohlik amaliyotlari bilan bir qatorda kam invaziv va murakkab jarrohlik amaliyotlari ham bajarilmoqda. Laparoskopik va artroskopik jarrohlik uskunalari yordamida turli amaliyotlar keng ko‘lamda o‘tkazilmoqda.

Anesteziologiya va reanimatsiya xizmati ham zamonaviy talablar asosida tashkil etilgan. Bo‘limda ko‘p funksiyali narkoz va sun’iy o‘pka ventilyatsiyasi apparatlari, kardiomonitorlar hamda maxsus funksional tibbiy jihozlar mavjud. Jarrohlik bo‘linmalarida markazlashtirilgan kislorod ta’minoti tizimining ishga tushirilgani esa bemorlar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

SOG‘LOM HAYOT SARI MUHIM QADAM

Zamonaviy tibbiyotda bemorni to‘liq sog‘lom hayotga qaytarish, uning jismoniy va ruhiy holatini tiklash ham muhim. 2008-yildan beri gospital tarkibida 70 o‘ringa mo‘ljallangan Reabilitatsiya markazi faoliyat yuritib, unda reabilitatsiya, psixosomatika va fizioterapiya yo‘nalishlari qamrab olingan.

Fizioterapiya bo‘limi kuniga 150 nafargacha bemorga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Bu yerda zamonaviy fizioterapevtik apparatlardan foydalanilib, turli muolaja usullari amalga oshiriladi.

Reabilitatsiya infratuzilmasida basseyn, trenajor zali, massaj xizmati, sauna va davolovchi jismoniy tarbiya kabi imkoniyatlarning mavjudligi bemorlarning tiklanish jarayonini kompleks tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Gospitalda kutubxona va 200 o‘rinli konferens-zalning mavjudligi muassasaning nafaqat davolash, balki tibbiy xodimlarning malakasini oshirish va ilmiy-amaliy tadbirlarni o‘tkazish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

INSON OMILI — ENG KATTA BOYLIK

Har qanday zamonaviy tibbiy muassasaning salohiyati shifokorlar, hamshiralar va barcha tibbiyot xodimlarining kasbiy mahorati bilan belgilanadi. Markaziy gospital jamoasi bu borada o‘zining boy tajribasi va kasbiy salohiyatini namoyon etib kelmoqda.

Eng muhimi, bu yerda zamonaviy tibbiyotning barcha imkoniyatlari inson manfaatiga xizmat qilmoqda. Zero, Vatan tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashdek sharafli vazifani bajarayotgan insonning salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish – davlat va jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. IIV Markaziy gospitali esa ana shu ezgu maqsad yo‘lida yillar davomida shakllangan tajriba, zamonaviy tibbiy texnologiyalar va fidoyi mutaxassislar salohiyatini birlashtirib, o‘z faoliyatini izchil davom ettirmoqda.

Davron SULTANOV,
IIV Markaziy gospitali boshlig‘i, podpolkovnik.

POSTDA
НА ПОСТУ * AT THE POST

Ehtirom

FIDOYILAR ASRAR TINCHLIKNI!



Siddiq MO‘MIN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

Tinchlik va osoyishtalik haqida o‘ylaganimda, birinchi galda, ko‘z oldimga ichki ishlar organlari xodimlari keladi. Osoyishtalik posbonlari mahallalarda xizmat olib boryapti, harakat xavfsizligini ta’minlayapti, adolat tantana qilishiga hissa qo‘shyapti. Qayerdaki ommaviy tadbirlar bo‘lsa, ular o‘sha yerda jamoat xavfsizligini ta’minlashga kamarbasta turishadi.

Yarim asrga yaqin vaqt davomida oliy ta’lim tizimida, yuz yillik tarixga ega Farg‘ona davlat universitetida ishlab kelyapman. Har kuni ishga ketayotib, birinchi galda, mahallamiz boshidagi tepasiga bayroq ilingan profilaktika inspektorining xizmat xonasiga ko‘zim tushadi. Yo‘llarda, chorrahalarda issiqni issiq, sovuqni sovuq demay, shamolni-da, qor-yomg‘irni-da pisand qilmay ishlayotgan yo‘l-patrul hamda patrul-post xizmati xodimlarini ko‘raman. Ich-ichimdan ularga nisbatan faxr-iftixor tuyg‘usi mavjlanadi.

To‘g‘ri-da, ular bo‘lmasa, chorrahalarda bir zumda tirbandliklar yuzaga kelishi mumkin. Mahallada biror ko‘ngilsizlik bo‘lsa ham, birinchi galda, profilaktika inspektorini yordamga chaqiramiz, undan maslahat so‘raymiz.

Meni quvontiradigan yana bir jihat shundaki, Farg‘ona davlat universitetida o‘qigan ko‘plab shogirdlarimiz aynan shu sohada ishlab, yurt tinchligini ta’minlashga munosib hissa qo‘shishmoqda.

Joriy yil aprel oyida Marg‘ilon shahrida «Burhoniddin Marg‘inoniy» ilmiy-ma’rifiy turizm majmuasi ochildi. Yaqinda har kuni minglab mahalliy va yuzlab xorijiy sayyohlar tashrif buyuradigan majmuani tomosha qilish uchun bilan bordim. Sayohat davomida «Tourist police» deb yozilgan libos kiygan xodimlarni ko‘rib, rosti, faxrlanib ketdim. Bir-biridan xushmuomala, kelishgan, istarasi issiq yigit-qizlar har bir sayyoh bilan samimiy muloqotga kirishmoqda. Ularning turli tillarda gaplasha olishi men lol qoldirdi. Xorijlik sayyohlar bilan ingliz, rus, turk va boshqa tillarda bemalol suhbatlashib, ularning savollariga javob berishayotgani tizimda amalga oshirilayotgan islohotlardan dalolat beradi.

Bilamizki, bu yil mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga hamohang ravishda ichki ishlar organlari tashkil topganiga ham 35 yil to‘ldi. Shu munosabat bilan soha xodimlariga samimiy tilaklarimni aytgim keldi.

Sharafli xizmatdan aslo charchamang!

Hamisha oltin boshingiz omon bo‘lsin!

SIZGA – SHARAF, SIZGA – SHON!..

Dilimdagi gaplarni
Aytay kelganda imkon:
– Sevasiz siz Vatanni,
Sizga – sharaf, sizga – shon!

Urib turarkan yurak,
Vatanni asrash kerak,
Dildan toshar shu tilak:
– Sizga – sharaf, sizga – shon!

Chor tarafga bo‘ylaysiz,
Yurt tinchligin o‘ylaysiz,
Nizoga yo‘l qo‘ymaysiz,
Sizga – sharaf, sizga – shon!

Har bir qadam – imtihon,
Qat’iy tartib-intizom,
Beadabga yo‘q imkon,
Sizga – sharaf, sizga – shon!

Tinchlik kunduz-kechada,
Tartib uyda, ko‘chada,
Orzular ko‘p rejada,
Sizga – sharaf, sizga – shon!

Sodiqligingiz rost-da:
Chopmaysiz boylik istab,
Doim sergaksiz postda,
Sizga – sharaf, sizga – shon!

Sizda ham bor oila,
Ba’zan kelmaysiz oylab.
Bolalar intiq poylab,
Sizga – sharaf, sizga – shon!

Tinchlik bois she’r bitdim,
Dilda borini aytdim,
Takrorlayman shu baytim:
– Sizga sharaf, sizga shon!..

Ustoz huzurida

«SHAMOL BO‘LIB YASHA...»

Har gal Shahrixon tumaniga borganimda, O‘zbekiston Qahramoni Kamoliddin G‘opirovni ko‘rmay qaytmayman. Bu inson bilan uchrashuvlardan doimo bir olam taassurot olaman. Bu gal ham «Nazarmaxram» mahallasidagi 44-IDUM ostonasidan hatlashim bilan hovli to‘ridagi o‘rindiqda o‘tirgan ustozga ko‘zim tushdi. Ustoz mahalla profilaktika inspektori, kapitan Dostonbek Otabekov bilan suhbatlashib o‘tirgan ekan.



– Men ustozning qo‘lida saboq olganman, – dedi kapitan Dostonbek Otabekov. – Mana shu maktabda o‘qiganman. Ustozimning nasihatlari hanuz qulog‘im ostida jaranglab turadi. U kishi bizga: «Sen yaproq bo‘lma, u yengil shamolda ham tanasidan ayriladi. Sen shamol bo‘lib yasha. Toki uyquga ketgan vujudlar ham uyg‘onsin. Toki sukutga cho‘mgan tanalar ham harakatga kelsin. Toki barcha yomonliklar uchib ketsin», – deb uqtirardilar.

Dostonbekning nigohida hurmat, ovozida esa minnatdorlik sezilib turardi. Bu esa uning hayot yo‘lida ustoz o‘gitlarining naqadar muhimligini namoyon etadi.

– Aynan shu mahallada xizmat qilishim men uchun katta baxt, – deydi Dostonbek so‘zida davom etar ekan. – Ilgari darslarni o‘zlashtirish bo‘yicha maslahat so‘ragan bo‘lsam, bugun hududda osoyishtalikni, jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi fikrlariga quloq tutaman. Kamoliddin akaning nomini, nafaqat shu mahallada, balki qo‘shni qishloqlarda ham hurmat bilan tilga olishadi. U kishi bilan suhbatlashgan odamning o‘ziga xos taassurot olishi shubhasiz.

Kechagina partada o‘tirib, ustozidan saboq olgan yigit bugun el osoyishtaligi uchun mas’ul xodimga aylangan. U endi o‘z kasbi orqali yoshlargagina emas, butun mahalla ahliga namuna bo‘lishga intiladi. Bunday mas’uliyat esa insondan bilim bilan birga sabr-toqat, odamiylik va hayotiy tajribani ham talab qiladi.

«Nazarmaxram» mahallasida qariyb to‘rt yarim ming nafar aholi istiqomat qiladi. Odamlarning fe’l-atvori, tashvishlari turlicha, ammo maqsadlari mushtarak – tinch va osuda hayot kechirish. Mahalla ahlining hamjihatligi, profilaktika inspektorining sa’y-harakatlari tufayli hudud so‘nggi uch yildan buyon «yashil» toifada.

– Bu muammolar yo‘q, degani emas, – deydi kapitan Dostonbek Otabekov. – Maxsus nazoratda turuvchi 28 nafar fuqaromiz bor. Ularning har biri bilan yakka tartibda ish olib boramiz. Muammolarini bartaraf etish, jamiyatda munosib o‘rin topishlariga ko‘maklashish uchun astoydil harakat qilamiz. Bu borada mahalla yettiligi a’zolari qo‘lni qo‘lga berib ishlayapti. Kamoliddin G‘opirovdek ustozlarimiz esa doimo maslahatgo‘y.

Kamoliddin aka bilan suhbatlashar ekanmiz, u kishining ertangi kundan ko‘ngli to‘qligini his qildik. Bu ishonchning sababini so‘raganimizda, ustozning yuzida faxr ifodasi paydo bo‘ldi.

– Vatan tinchligi, yurt obodligi uchun sidqidildan xizmat qilishni ixtiyor etgan bolajonlarga saboq beryapmiz. Hali ular orasidan o‘nlab Dostonbeklar yetishib chiqadi, – dedi u kishi mamnuniyat bilan. Bu so‘zlarda shunchaki ustozlik g‘ururi emas, balki yillar davomidagi mehnat samarasini ko‘rayotgan insonning quvonchi bor edi.

Saminjon HUSANZODA,
o‘z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

Mulohaza

ALIMENTDAN QOCHAYOTGAN OTALAR

«ONA SHUNCHA PULNI QAYERGA ISHLATADI?»

Ijtimoiy tarmoqlarda poytaxtimizning Chilonzor tumanida istiqomat qiluvchi otaga bir nafar farzandi uchun 752 million so‘mdan ortiq aliment hisoblangani haqida xabar tarqalgan edi. Bu holatga munosabat bildirganlar ikki guruhga ajraldi. Kimningdir nazarida aliment ayollar uchun shunchaki «qurol» bo‘lsa, boshqalar uni bolaning ehtiyojlari uchun ham yetarli mablag‘ emas, deb hisobladi.

Aholining yana bir qatlamida esa boshqa savol paydo bo‘ldi: aliment miqdorini ota daromadining ma’lum qismi sifatida belgilash adolatlimi yoki uni bolaning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, qat’iy summada belgilash kerakmi? Biroq muhokamaning eng muhim nuqtasini bir narsa belgilab berishi lozim: **aliment – sobiq xotinga beriladigan pul emas, balki bolaning ta’minoti uchun otaning majburiyatidir.** Shuning uchun «ona shuncha pulni qayerga ishlatadi?» degan savolga chiziq tortib qo‘yish ham, «ota qancha topsa, shuncha to‘lashi shart» degan sodda xulosaga kelish ham muammoning mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Chunki aliment masalasining markazida erkak ham, ayol ham emas – farzand turibdi.

OTA-ONALIK NIKOH BILAN TUGAMAYDI

Ajrashish bilan oila buzilishi, bir-biriga bo‘lgan mehr, ishonch va hatto muloqot ham tugashi mumkin. Ammo farzand oldidagi ota-onalik mas’uliyati hech qachon tugamaydi. Xususan, Oila kodeksining 96-moddasiga ko‘ra, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berishi shart. Agar ota-ona o‘rtasida aliment to‘lash haqida kelishuv bo‘lmasa, Kodeksning 99-moddasiga muvofiq, sud tomonidan aliment odatda bir nafar farzand uchun ota-onaning har oylik ish haqi va (yoki) boshqa daromadining to‘rtdan bir qismi, ikki nafar farzand uchun uchdan bir qismi, uch va undan ortiq farzand uchun esa yarmi miqdorida undiriladi. Bunda sud tomonlarning moddiy va oilaviy ahvoli hamda boshqa e’tiborga loyiq holatlarni hisobga olib, aliment miqdorini kamaytirishi yoki ko‘paytirishi mumkin. Demak, aliment – kimningdir «sobiq xotinini boqishi» emas. Bu – farzandini ta’minlashda otaning qonuniy majburiyati va o‘z ulushini ado etishidir. Shuning uchun «men xotinim bilan ajrashdim, endi unga nima uchun pul berishim kerak?» degan qarashning o‘zi masalani noto‘g‘ri qo‘yadi. Siz xotiningizdan ajrashgan bo‘lishingiz mumkin, lekin farzandingizdan emas!

Ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yil hali yakunlanmasidan turib, sudlarga 60 ming nafar eridan ajrashgan ayol aliment undirish uchun ariza bergan. Bu alimentni undirishga erisha olmaganlar. Demak, umumiy ajrashishlar soni 100 mingdan ortiq. Agar har bir oilada o‘rtacha uch nafardan farzand bor, deb hisoblasak, bu 300 ming nafar «tirik yetim” bola degani.

OTALIK MAS’ULIYATI

Eng achinarlisi – ayrim erkaklar alimentdan qochish uchun o‘zini ishsiz ko‘rsatishidir. Hamkasbim bir voqeani so‘zlab bergandi. O‘ziga to‘q, imkoniyati yetarli xonadonning o‘g‘li uylanadi. Oradan vaqt o‘tib, ikki nafar farzandli bo‘ladi. Keyin oilaviy kelishmovchiliklar sabab er-xotin ajrashadi. Ona farzandlari ta’minoti uchun aliment talab qiladi. Shundan so‘ng erkak yaxshi maosh oladigan ishidan ketishga qaror qiladi. Sababi oddiy: rasmiy daromadi qancha kam bo‘lsa, aliment ham shuncha kam bo‘ladi. Ammo shu yerda oddiy, biroq og‘riqli savol tug‘iladi: ota ishdan ketgani bilan farzandning ehtiyojlari: maktab, ovqat, kiyim-kechak va dori-darmon xarajatlari ham kamaydimi? Uy-joy va kommunal to‘lovlar arzonlashdimi? Uning ta’limi, sog‘lig‘i va kelajagi uchun xarajatlar-chi? O‘zgargan yagona narsa – otaning rasmiy daromadi.

Albatta, har bir ishsizlik yoki daromadning kamayishini alimentdan qochish deb baholab bo‘lmaydi. Inson ishsiz qolishi, daromadidan ayrilishi yoki og‘ir moliyaviy inqirozga tushib qolishi mumkin. Bunday holatlar alohida yondashuvni talab qiladi. Ammo ataylab «qanday qilib kamroq aliment to‘layman?» degan yo‘lni izlash masalani boshqa nuqtaga olib chiqadi. Chunki bu yerda gap faqat pul haqida emas, otalik mas’uliyati haqida.

Bolaning real ehtiyoji qancha? Aliment miqdori bolaning yoshi, ta’lim, davolanish, parvarish va boshqa xarajatlari bilan qanday bog‘lanishi kerak? Juda yuqori daromadga ega shaxs uchun alimentni hisoblashda yuqori chegara yoki boshqa mexanizm kerakmi? Bular jiddiy huquqiy va ijtimoiy savollar. Qolaversa, amaldagi qonunning o‘zi ham alimentni faqat daromad ulushida belgilash bilan cheklanmaydi.

Shuning uchun «qonun faqat otaning maoshidan ulush olishni talab qiladi» degan tasavvur ham to‘liq aniq emas.

BOLADAN QOCHISH NOMARDLIK

Jamiyatimizda erkaklarga nisbatan mardlik, oila boshlig‘i kabi tushunchalarni ishlatamiz. Ammo mardlik faqat oila qurish, uyga pul olib kelish yoki farzandli bo‘lish bilan o‘lchanmaydi. Mardlikning og‘irroq sinovi ham bor: o‘z xatosining oqibatini ko‘tarish. Oila buzilgan bo‘lsa – bolani tashlab qo‘ymaslik. Sobiq xotin bilan munosabat yomon bo‘lsa – farzand bilan munosabatni saqlash. Daromad kamaygan bo‘lsa – imkon darajasida harakat qilish. Ish topilmagan bo‘lsa – ish izlash. Qarz yig‘ilgan bo‘lsa – uni hal qilish yo‘lini qidirish. Ammo ishdan ataylab ketish, daromadni yashirish, o‘zini ishsiz qilib ko‘rsatish yoki turli yo‘llar bilan majburiyatdan qochishni albatta nomardlik deb atash mumkin. Chunki bunday holatda erkak aslida xotini bilan emas, o‘z farzandi bilan hisob-kitob qilayotgan bo‘ladi.

Alimentni to‘lamaslikning eng og‘ir narxi pul bilan o‘lchanmaydi. Bola otasining aliment bergan-bermaganini bir kun bilishi mumkin. Onasining qiynalganini ham ko‘rishi mumkin. Bolaligida «nega dadam bizga yordam bermaydi?» degan savolni o‘ziga berishi mumkin. Bu savolning javobi esa ba’zan puldan ham og‘ir bo‘ladi. Chunki bola uchun otaning bergan pulidan tashqari, yana bir narsa muhim: «Dadam men uchun mas’uliyatni his qiladimi?» Alimentning har bir so‘mi bolaning qorni, kiyimi yoki daftariga aylanishi mumkin. Ammo alimentdan qochishning har bir bahonasi bolaning xotirasida boshqacha iz qoldirishi ehtimol. Qonun ham bu majburiyatni jiddiy qabul qiladi. Aliment majburiyatini bajarmaslik shunchaki «oilaviy kelishmovchilik» sifatida qaralmaydi. Bundan tashqari, **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda sud qarori asosida undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘ni ikki oydan ortiq muddat to‘lamaslik uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan.** Ya’ni qonunning o‘zi ham bu masalani «xohlasam to‘layman, xohlamasam yo‘q» darajasida ko‘rmaydi.



BIZ KIMNI HIMOYA QILYAPMIZ?

Aliment haqidagi bahslarda yana bir xavfli holat bor. Biz ko‘pincha «ona qancha oladi?» deb so‘raymiz. «U pulni qayerga ishlatadi?» deymiz. «Shuncha pulni bolasiga sarflaydimi?» deymiz. Albatta, aliment mablag‘laridan maqsadli va adolatli foydalanish masalasi ham muhokama qilinishi mumkin. Lekin shu bilan birga: «Bola qancha xarajat talab qiladi?» degan savol ham berilishi kerak. Chunki bola faqat non yemaydi. Uning ta’limi, kiyimi, sog‘lig‘i, transport xarajati, to‘garagi, kitobi bor. Telefoni, kompyuter ehtiyoji, uy-joy xarajatlaridagi ulushi bor. Ba’zi bolalarda esa davolanish, reabilitatsiya yoki maxsus parvarish xarajatlari mavjud. **Shuning uchun alimentni muhokama qilganda «ota qancha to‘laydi?» degan savol bilan bir qatorda, «bolaning ehtiyoji qancha?» degan savol ham turishi kerak. Ammo farzandi uchun pulni majburlab emas, vijdonan to‘laydigan ota bolasiga: «Men sening yoningdaman»,** degan ishonchni beradi.

Aliment – farzand oldidagi qarz. Shuning uchun alimentdan qochishning har bir usulini topqirlik deb atashdan oldin bir savolni o‘zimizga berishimiz kerak: agar shu puldan mahrum bo‘layotgan inson o‘z farzandimiz bo‘lsa, biz ham bu ishni «erkaklik» deb atagan bo‘larmidik? Bugun alimentdan qochayotgan ota balki pulni tejab qolayotgandir. Ammo farzandining ko‘zida u puldan ancha qimmat narsani – ota sifatidagi ishonchni yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Ularga aytadiganimiz: ba’zi qarzlar pul bilan to‘lanadi, ba’zilarini esa yillar o‘tsa ham qaytarib bo‘lmaydi...

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

POSTDA
НА ПОСТУ • AT THE POST

Jinoyatga jazo muqarrar

«Pulni top, aks holda hammasini oilangga aytib beraman!» Telefoniga kelgan navbatdagi yangi xabardan Nafisa (ismlar o‘zgartirildi)ning yuragi siqildi.

TOVLAMACHINING REJASI CHIPPAKKA CHIQDI

Mana, bir necha kundirki, Zohiddan shu kabi tahdidlar ustma-ust kelmoqda. Oxirgisi juda oshib tushdi. Endi oilasi va ota-onasiga nima deb tushuntiradi? Vaqtida yoshlik qilib Zohid bilan yozishgani, surat va videolarga tushgani bugun boshiga balo bo‘lyapti.

To‘g‘ri, Zohid aytgan 9 million so‘mni bersa, ovozi o‘chadi. Ammo qachongacha? Yana pulga muhtoj bo‘lgunichami? Bu ahvolning uzoq davom etmasligi aniq. Xotirjamlikni pulga sotib olgani bilan, pul tugagach, hammasi qaytadan boshlanadi.

Shu topda Nafisaning yodiga bir vaqtlar o‘qigan Stefan Sveygning «Vahima» hikoyasi tushdi. Mana, o‘zi ham o‘sha asar qahramoni holiga tushib o‘tiribdi. Hikoyada qahramon ruhiy bosimlarga dosh berolmay, o‘z joniga qasd qilishga urinadi. Kitobdagi voqealar bir yarim asr muqaddam yuz bergan, hozir esa qo‘l qovushtirib o‘tirish va o‘z yog‘iga o‘zi qovurilishning mavridi emas. Nafisa qat’iy qarorga keldi...



U ichki ishlar organiga murojaat qilib, Jizzax shahrida tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi, 1995-yilda Namangan viloyatida tug‘ilgan shaxs unga nisbatan tovlamachilik qilayotganini bildirdi. Arizada qayd etilishicha, tovlamachi shaxsiy hayotga oid suratlar va o‘zaro yozishmalarni yaqin qarindosh-larga hamda internet tarmoqlariga tarqatmaslik evaziga o‘z nomidagi 9 million so‘mlik kredit qarzdorligini to‘lab berishni talab qilgan.

Jizzax viloyati IIB xodimlari tomonidan o‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbiri davomida gumonlanuvchi maxsus ishlov berilgan pullarni olayotgan vaqtda ushlandi. Uning tasvirlar va yozishmalar saqlangan mobil telefoni ashyoviy dalil sifatida olindi.

Voqeaning eng muhim jihati – jabrlanuvchining o‘z vaqtida ichki ishlar organiga murojaat etganidir. Shu bois agar kimdir shaxsiy suratlaringiz, yozishmalaringiz yoki boshqa ma’lumotlaringizni tarqatish bilan tahdid qilayotgan bo‘lsa, talab qilingan pulni berish yoki jinoyat izlarini yashirishga urinish o‘rniga, dalillarni saqlab qolgan holda darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish zarur.

Hozirda mazkur holat bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda. Tahdid manbayi bo‘lgan telefon endilikda tergov uchun dalil bo‘lib xizmat qiladi va holatga tegishli huquqiy baho beriladi.

Baxtiyor TOG‘AYEV,
kapitan.

Jizzax viloyati.

MEBELLI XONADON «SIRI»

Turarjoy oldi-sotdisi – hamisha katta ishonch va mas’uliyatni talab qiladi. Ammo ba’zan ana shu ishonchdan g‘arazli maqsadda foydalanadiganlar ham topiladi.



Samarqand shahrida doimiy yashab kelgan fuqaro Chaman Maqsudova (ism-shariflar o‘zgartirildi) o‘z nomidagi xonadonni 30500 AQSH dollariga sotishini aytib, xaridor Sulton Anvarovga uydagi mebel jihozlarini ham tashlab ketishini va’da qiladi. Buning uchun qo‘shimcha 1500 AQSH dollari oladi. Biroq uyni topshirishdan oldin barcha mebellarni olib ketib, firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritgan pullarni o‘z ehtiyojlari uchun ishlatib yuboradi.

Bundan tashqari, u takroran aldash va ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish maqsadida o‘zini uy oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchi shaxs sifatida ko‘rsatadi. Ta’mirlangan va to‘liq jihozlangan xonadonlarni sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlarda e’lonlar beradi. Shu tariqa, o‘ziga avvaldan tanish bo‘lgan Muslima Botirovaga uyni arzon narxda – 32000 AQSH dollariga sotishini, mebellarni ham qo‘shib berishini aytib ishontiradi. Kelishuvga ko‘ra, xaridor unga 2000 AQSH dollari miqdorida oldindan mablag‘ beradi.

Voqealar rivoji kutilganidek kechmadi. Pulni olganidan so‘ng ayolning munosabati keskin o‘zgardi, bergan va’dalari faqat og‘izda qoldi. Ana shundagina aldanganini anglagan jabrlanuvchi ichki ishlar organiga murojaat qildi.

Mazkur holat yuzasidan Samarqand shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo‘limi tergovchisi, kapitan Suhrobxon Botirov tomonidan tergov harakatlari olib borildi. Tergov jarayonida har bir tafsilot sinchiklab o‘rganildi. Natijada jabrlanuvchining murojaati va da’vo talablari huquqiy jihatdan to‘liq baholanib, uning buzilgan huquqlarini tiklash, yetkazilgan zararni qoplash choralari ko‘rildi. Tergov natijalariga ko‘ra, Ch.Maqsudovaning aldash va ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan takroran o‘zganing mulkini qo‘lga kiritgan jinoiy harakatlariga qonuniy baho berildi.


Firibgarlik qanchalik puxta rejalashtirilmasin, oxir-oqibat uning izi fosh bo‘ladi. Qonun himoyachilari esa doimo haqiqatni yuzaga chiqarib, jabrlanuvchilarning haq-huquqlarini tiklashga mas’ul.

Umida MAMADALIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

OLIMP SARI DADIL QADAMLAR:

KELAJAK CHEMPIONLARI TOSHKENTDA



O‘zingga ishon! O‘z ustingda ishla! O‘z yurtingga munosib bo‘l!
Bu so‘zlar har biringizning hayotiy shioringizga aylansin!

Shavkat MIRZIYOYEV



Toshkent shahrida 27-oktabrda rasman start olgan Prezident Olimpiadasi qizg‘in pallaga kirdi.

Olimpiya shaharchasida o‘tgan tantanali ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, yoshlar sportini rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning xalqaro maydonda munosib ishtirok etishi uchun yangi imkoniyatlar yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratdi, yosh sportchilarga omad va zafarlar tiladi.

Bu yilgi Prezident Olimpiadasida mamlakatimizning barcha hududlaridan 3,5 ming nafardan ziyod yosh sportchi olimpiya va paralimpiya yo‘nalishidagi 26 ta sport turi bo‘yicha kuch sinashmoqda.

8-noyabrgacha davom etadigan bellashuvlar iqtidorli yoshlarni kashf etish, ularning mahoratini sinovdan o‘tkazish va kelajakda xalqaro musobaqalarda yurtimiz sharafini himoya qiladigan sportchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Olimpiadasi respublika final bosqichining voleybol musobaqalari yakunlanib, g‘olib va sovrindorlar aniqlandi.



Voleybol:

Yigitlar:
1. Andijon viloyati;
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi;
3. Farg‘ona viloyati.

Qizlar:
1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi;
2. Samarqand viloyati;
3. Xorazm viloyati.

Shuningdek, sohil voleyboli bo‘yicha kichik o‘smirlar o‘rtasidagi final bosqichi ham poyoniga yetdi. Qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi bahslarda g‘olib va sovrindorlar aniqlandi.





Kichik o‘smir qizlar:
1. Toshkent viloyati;
2. Qashqadaryo viloyati;
3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

Kichik o‘smir bolalar:
1. Samarqand viloyati;
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi;
3. Qashqadaryo viloyati.

O‘z muxbirimiz

MAYDONDA – JURNALIST AYOLLAR

Jizzax viloyati IIB va O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi hamkorligida ayol jurnalistlar o‘rtasida voleybol bo‘yicha «IIB boshlig‘i kubogi» musobaqasi o‘tkazildi. «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyatida o‘tkazilgan bellashuvlarda jizzaxlik va sirdaryolik jurnalist ayollar o‘zaro kuch sinashdi.

Ichki ishlar organlari tashkil etilganining 35 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan ushbu musobaqada jami 4 ta jamoa bellashdi. Ijodkor xotin-qizlar kasbiy salohiyati bilan birga jismoniy faolligi, irodasi va jamoada ishlash mahorati bilan ham e’tiborga loyiq ekanini ko‘rsatdilar. Kundalik faoliyatida axborot tarqatish, jamiyatdagi muhim jarayonlarni yoritish bilan band bo‘lgan jurnalistlar bir-birlarini sport muhitida ham kashf etdilar.

Qizg‘in va hayajonli o‘tgan musobaqada g‘olib jamoalar saralandi. Matonatli o‘yin namoyish etgan Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi jamoasi 3-o‘rindan, yuksak uyushqoqlik ko‘rsatgan «Yangi Sirdaryo» gazetasi jamoasi 2-o‘rindan joy oldi. IIB boshlig‘i kubogi «Jizzax haqiqati – Джизакская правда» gazetasi jamoasiga nasib etdi.

G‘olib va sovrindorlarga diplom va qimmatbaho sovg‘alar tantanali topshirildi.

Muqaddas SAPAROVA,
o‘z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.



Skanvord

POSTDA
НА ПОСТУ * AT THE POST

Xesh
Ajrli ish
Suv jonivori
Faryod
Suv yo‘li
Shahar (Gruziya)
Kichik jamiyat
Adolf...
Shahar (Latviya) / Ball
Payg‘ambar kalomi
Ko‘rsatish olmoshi
Rang
Farzand
Sag‘ana
... Presli (xonanda)
Yusuf Roziqov filmi
Yigit
Olqish / Metall ip
Jumla
Aks-...
Leonardo di ...
Daryo (Qozog‘iston)
... Norris (aktyor)
Onalar qo‘shig‘i
Nota
Avto rusum
Dengiz
To‘g‘ri keladigan
II
Samolyot rusumi
Oynai jahon
Bosh
... Solihova (raqqosa)
Raqam
Qadimiy imperiya
Taqiq
Xil / G‘ilof
Cho‘qqi
Tog‘ o‘simligi
... Ahmad (adib)



Muxtasar
Bag‘dod
Katta
Dastlab
Yaqin qarindosh
Tamom
Daraxt
Bahra-mand
Novcha / O‘tinch
Kichik
Nota
Abdurah-mon ...
Bug‘doy
Ho‘l meva
Yo‘nalish
Mehnat-kash
O‘quv quroli
Dukkakli o‘simlik
Saraton / O‘lchov birligi
Sevgi / Rad javob
Bola (toj.)
Avom
Hindular qabilasi
Ukpar
Kigiz
Maftun / Xayol
... Sobirov (xonanda)
Qush turi
Tog‘
Qaysar
Burjlardan biri
Cho‘pchak
Non turi
Xushbo‘y
... Xon (aktyor)
Bilimsiz / Chigit
Yukla
Mels Abzalov filmi



Daraxt
Sara
...-shubha
100 yil
Hayo
Namuna
Chap emas / Buyruq
Jasur
Tuzuvchi: Mahfuza G‘ULOMOVA

MILLIY ĞURUR VA SADOQAT SABOĞI







Turmuş çorrahalarida



Jayrona har kuni ertalab Malikni işga kuzatar ekan, eşik oldida bir neça soniya töxtab qolardi.

– Bugun ham keç qolmang, – derdi jilmayib.

Malik esa odatdagidek xotirjam ovozda:

– Nasib qilsa, ertaroq qaytaman, – deb javob berardi.

Şu suhbat odatdagidek oddiy tuyulardi. Biroq Jayrona uçun bu sözlar ortida katta bir xotirjamlik bor edi. Çunki u bilardi: uyda biror muammo çiqsa, Malik mas'uliyatdan qoçmaydi.

Jayrona hamma işni eriga taşlab qöygan ayol ham emas. U rözğorni boşqarar, farzandlari tarbiyasi bilan şuğullanar, eriga maslahat berar, kerak bölsa fikrini oçiq aytardi. Biroq u bir narsani yaxşi tuşunardi: oilada ikki kişi bir-birini yengiş emas, bir-birini töldiriş uçun yaşaydi. Şu bois, Jayrona aslo erining obrösini bolalari oldida tuşirmasdi. Malikning biror qarorini bolalari oldida muhokama qilmasdi.

– Dadangiz şunday qaror qildi. Demak, bu qaror ortida bir sabab bor, – derdi.

Agar Malik xatoga yöl qöysa, buni hammaning oldida foş etmasdi. Keçqurun, bolalar uxlagaç, xotirjam gaplaşardi:

– Dadasi, menimça, bu joyida boşqaçaroq yöl tutsak ham bölardi...

Malik xotinining fikrini eşitardi. Ularning fikri har doim ham bir joydan çiqmasdi. Lekin bir-birini hurmat qilişardi. Uydagi eng katta boylik ham şu edi.

Bir kuni Jayrona dugonasi Soraxonnikiga mehmonga bordi. Soraxon sönggi paytlarda juda köp şikoyat qiladigan bölib qolgandi.

– Ering qalay? – gap orasida söradi Jayrona.

Soraxon çuqur xörsindi.

– Nimasini söraysan? Uyda erkak bormi-yöqmi, bilib bölmaydi. Biror qaror qabul qilsa, ertasiga fikri özgaradi. Bir narsa desam, "özing bilasan" deydi. Bolalar ham uni jiddiy qabul qilmay qöyişgan.

Jayrona biroz sukut saqladi.

– Özing unga hurmat bilan munosabat qilasanmi?

Soraxon hayron bölib qaradi.

– U hurmatga arzimasa-çi?

Jayrona uning qölini uşladi.

– Bu xato. Ba'zan erkakning obrösi öz-özidan tuşmaydi. Uni uydagi munosabatlar ham kötaradi, ham tuşiradi.

Soraxon indamadi. Jayrona davom etdi:

– Erkak mas'uliyatni his qilişi uçun undan mas'uliyatni doim tortib oliş şart emas. Qarorini har safar bolalar oldida bekor qiliş ham töğri emas. Agar xatosi bölsa, yolğiz qolganingizda özига ayt. Agar töğri iş qilsa, qadrla. Erkak öz uyida qadr topsa, öşa uy uçun yanada köproq harakat qiladi.

Soraxon bu gaplarni javobsiz qoldirdi. Lekin Jayronaning sözlari xayolidan ketmadi.

Oradan yillar ötdi. Jayrona bilan Malikning qizi Jamila maktabni tugatib, oila quriş yoşiga yetdi.

Jamila otasini juda hurmat qiladi. Otasi uyga kirib kelganda onasi uni qanday qarşi olişini, otasi bilan qanday muloyim gaplaşişini körib katta bölgandi.

Bir kuni Jamila onasidan söradi:

– Ona, dadam bilan sira tortişmaysiz-a?

Jayrona kulib yubordi.

– Tortişamiz, qizim.

– Siz dadamni emas, oilamizni asragan ekansiz...

– Rostdanmi? Heç körmaganman, – dedi Jamila qiziqib.

– Çunki sen körmasliging, eşitmasliging, bilmasliging kerak bölgan gaplar bor. Er-xotinning har bir gapi bolaning oldida aytilavermaydi.

Jamila biroz öylanib:

– Demak, siz dadamdan qörqasiz?

Jayrona boş çayqadi.

– Yöq. Dadangdan qörqmayman. Uni hurmat qilaman.

– Farqi nimada? – ajablandi Jamila.

Jayrona qizining közіga qarab, sekin dedi:

– Qörquv odamni uzoqlaştiradi. Hurmat esa yaqinlaştiradi. Men dadangni oila boşliği sifatida hurmat qilaman. U ham meni umr yöldoşi sifatida qadrlaydi. Oilada hurmat bir tomonlama bölmaydi, qizim.

Jamila bu gapni qalbiga muhrlab qöydi.

Oradan yana bir neça yil ötib, Jamila turmuş qurdi, söng farzandli böldi. Vaqt ötişi bilan oilasida mayda kelişmovçiliklar yuzaga kela boşladi. Bir kuni turmuş örtoği uy uçun muhim bir qaror qabul qildi. Jamila esa bu qarorga rozi emasdi. Uning könglidan: "Şunday vaziyatda dadam qanday yöl tutardilar?" degan fikr ötdi. Şunda onasining gapi esiga tuşdi: "Sen körmasliging, eşitmasliging, bilmasliging kerak bölgan gaplar bor".

Şu kuni u ertasi kungaça sukut saqlamadi, ammo erini ham farzandi oldida şarmanda qilmadi. Keçqurun Asilbekka:

– Bu qaroringizga töliq qöşilmayman. Lekin keling, tinçgina gaplaşib olaylik, – dedi.

Asilbek xotiniga qaradi.

– Menga qarşi çiqyapsanmi?

Jamila jilmaydi.

– Yöq. Siz bilan birga töğri qaror qilişga intilyapman.

Bu gap Asilbekning jahlini bosdi. Ular uzoq gaplaşişdi. Oxirida Asilbek ham xotining fikrida jon borligini tan oldi. Öşa oqşom Jamila bir narsani tuşundi: erkakning obrösini saqlaş – uning har bir gapiga kör-körona böysuniş emas. Bu uni inson sifatida qadrlaş, fikrini hurmat qiliş, xatosini öz vaqtida töğrilaş uçun yaxşi muomala qiliş ham örinli bölar ekan.

Yillar ötib, Jamilaning farzandlari ham ulğaydi. Qizi otasi bilan gaplaşganda uning sözini bölmasdi. Öğli esa oilada qarorlar muhokama qilinganda onasining ham, otasining ham fikrini eşitiş kerakligini angladi.

Bir kuni Jamila onasinikiga mehmonga bordi. Ança suhbatlaşib ötirişdi. Gapdan gap çiqib, onasining bir vaqtlar aytganini muşohada qilib:

– Ona, endi tuşundim, – dedi.

– Nimani tuşunding?

Jamila biroz sukutdan keyin dedi:

– Siz dadamni emas, oilamizni asragan ekansiz.

Jayrona közlarini yerga tikdi. Bu gap eng katta mukofotdek tuyuldi.

Mirzoqul AHADOV

«APK QO‘RIQCHI» – KIBERFIRIBGARLARGA QARSHI QALQON



Bugun oddiygina telefonimizda bank kartalarimiz, shaxsiy yozishmalarimiz, suratlarimiz, yaqinlarimiz raqamlari, turli ilova va ijtimoiy tarmoqlardagi hisoblarimiz saqlanadi. Shu bois unga kelgan har bir havola yoki faylga ham ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kerak.



Kiberfiribgarlar esa odamlarning ishonchidan foydalanib, turli usullar bilan ularni chalg‘itishga urinmoqda. «Bankdanman», «sovrin yutdingiz», «hisobingiz bloklanadi», «sizga pul o‘tkazildi» kabi xabarlar orqali havolani yuklash yoki noma’lum APK faylni o‘rnatishga undash shular jumlasidandir.

Bir qarashda oddiy tuyulgan bu harakat katta muammoga aylanishi mumkin. Shubhali dastur orqali shaxsiy ma’lumotlar qo‘lga kiritilishi, bank hisoblariga zarar yetkazilishi yoki ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlar egallab olinishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun kiberjinoyatchilikning barvaqt oldini olishda aholi orasida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, xavfni oldindan anglash va himoya vositalaridan foydalanish muhim.

Namangan viloyati IIB Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi mas’ul xodimlari ham bu borada muntazam targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazmoqda. To‘raqo‘rg‘on tumani Nuroniylar jamg‘armasi hamkorligida tashkil etilgan navbatdagi uchrashuvda nuroniylarga internet firibgarligining zamonaviy ko‘rinishlari haqida ma’lumot berildi.

Ularga soxta havolalarni ochmaslik, noma’lum fayllarni yuklab olmaslik, bank kartasi ma’lumotlari va SMS-kodlarni begonalarga bermaslik zarurligi tushuntirildi. Tadbirning e’tiborli jihati shundaki, ishtirokchilarning mobil telefonlariga «APK Qo‘riqchi» ilovasi o‘rnatib berildi. Shu tariqa, kiberxavfsizlik haqidagi tushuntirishlar nazariy ma’lumot bilan cheklanib qolmadi, balki amaliy ko‘nikma bilan boyitildi.

Ayniqsa, APK formatidagi noma’lum fayllardan ehtiyot bo‘lish muhim. Chunki tanish tashkilot yoki xizmat nomi ostida yuborilgan fayl ham zararli bo‘lishi mumkin. Shu sababli har qanday dasturni o‘rnatishdan oldin uning manbasiga ishonch hosil qilish zarur.

Kiberxavfsizlik katta va murakkab tushunchadek ko‘rinsa-da, uning asosiy qoidalari oddiy: shubhali havolani ochmaslik, noma’lum APK-faylni o‘rnatmaslik, shaxsiy va bank ma’lumotlarini begonalarga bermaslik.

«APK Qo‘riqchi» kabi himoya vositalarining aholiga tanishtirilishi va mobil qurilmalarga o‘rnatib berilishi esa ana shu oddiy qoidalarni amaliyot bilan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bunyod ASATILLAYEV,
mayor.

Namangan viloyati.

Donolar so‘zlaydi, biz yodga solamiz





MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
podpolkovnik
Xurshidbek RO‘ZIYEV

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
23402000300100001010
Bank kodi 00014
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi
Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Buyurtma № 3319.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
50498 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko‘chasi 1A-uy.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.